



**2024**

**№ 3**

**ISSN 3030-380X**

**TA'LIMDA  
ISTIQBOLLI  
IZLANISHLAR**

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL



# **TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

# **ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический журнал

# **PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION**

International Scientific Methodological Journal

**Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va  
axborot boshqarmasi tomonidan 2024-yil 26-mart № 245685 -sonli  
guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)

**BOSH MUHARRIR:**

**XAMIDOV OBIDJON XAFIZOVICH**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Кулишев В.В** - pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina)

**Andriyenko Y.V** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)

**Romm T.A** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)

**Maskimsev I. A** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sankt-Peterburg, Rossiya)

**Margianti E.S** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Kozlov V.V.** - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

**Malix S.B.** - pedagogika fanlari doktori, akademik (Rossiya)

**Jo'rayev A.T** - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yavmutov D.Sh.** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Salixov S.A** - iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasulov Sh.A.** - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Nazarov A.M.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Usmanova M.N.** - psixologiya fanlari nomzodi, professor

**Ostanov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rustamov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Dilova N.G.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Olimov Sh.Sh.** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Xamroyev A.R.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Zaripov L.R** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Sayfullayeva N.Z** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Rajabov D.Z.** - filologiya fanlari doktori, professor

**Xalilova R.R.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mas'ul kotib:**

**Tilavov Muxtor Hasan o'g'li** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Texnik muharrir:** Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li

Ganjiyev Feruz Furqatovich

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti (PhD)

## O'SMIRLARDA AGRESSIVLIK VA UNING O'ZIGA XOS PSIXOFIZIOLOGIK KO'RINISHLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada agressivlik tushunchasi, agressivlik borasida olib borilgan tadqiqotlar, agressivlikning turlari hamda o'smirlarga xos agressivlik, uning kelib chiqish sabablari ochib berilgan. Shu bilan birga o'smirlarda agressivlikning shakllanishiga shaxs xususiyatlari ta'siri masalalari va oilaning ta'siri yoritib berilgan.*

***Tayanch so'zlar:** ommaviy axborot, o'zidan qoniqmaslik, axloqiy talablar, emansipatsiya, krizis, xulq-atvor, qaysarlik, agressivlik.*

## АГРЕССИВНОСТЬ ПОДРОСТКОВ И ЕЁ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ

***Аннотация.** В данной статье раскрываются понятие агрессивности, исследования агрессивности, виды агрессивности, а также агрессивность, присущая подросткам, причины её возникновения. При этом освещаются вопросы влияния личностных особенностей на формирование агрессивности у подростков и влияния семьи.*

***Ключевые слова:** общественная информация, неудовлетворённость собой, моральные требования, эмансипация, кризис, поведение, упрямство, агрессивность.*

## ADOLESCENT AGGRESSION AND ITS SPECIFIC MANIFESTATIONS

***Abstract.** This article reveals the concept of aggression, research on aggression, types of aggression, as well as aggression inherent in adolescents, the reasons for its occurrence. At the same time, the issues of the influence of personal characteristics on the formation of aggression in adolescents and the influence of the family are highlighted.*

***Key words:** public information, dissatisfaction with self, moral demands, emancipation, crisis, behaviour, stubbornness, aggression.*

**Kirish.** O'smirlarda tajovuzkor xulq namoyon bo'lishining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etish etish dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi paytda o'smirlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga e'tiborni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti, yurt kelajagi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk, jismonan sog'lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, izlanish va iste'dodini qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ham Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning chuqur bilim olishi va iste'dodini keng namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratildi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggressi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «aggressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar agressiyaga salbiy yondoshuv qilsalar (X. Delgado, A.A. Bass, L.M. Semenyuk, G. Parens, A. Bandura, R. Uolter, Y. Mojginskiy), ayrimlari agressiyani (L. Bender, D. Richardson, R. Beron) ijobiy baholaydilar (1). Olimlar agressiyaning quyidagi turlarini keltirib o'tadilar. Bular: Jismoniy agressiya – boshqani qo'rqitishdan tortib, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma'naviy og'riq yetkazish. Bilvosita agressiya

– boshqa insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish (mish-mish, kalaka qilish va hokazo), o'z-o'zidan aynan boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo'lishi (mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar). Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish. T.G. Rumyanseva, I.B. Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar.

Agressivlikning shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etadi. Dushmanlik xulq-atvori oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida asta-sekin shakllanadi. Bolalar tajovuzkorlikni kuzatish va sinab ko'rish orqali o'rganadilar: ular nafrat va dushmanlik qanday namoyon bo'lishini ko'radilar, bu nimaga olib kelishini baholaydilar, olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar. Agar tajovuzkor harakatlar tajribasi ijobiy bo'lsa, ular xarakterda mustahkamlanadi. Voyaga yetgan odamning tajovuzkorligining sabablari ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy kasalliklar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan zaharlanish holatlari hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** O'z-o'zidan ma'lumki agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Tadqiqotchilar agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga subektiv omillarni keltirib o'tganlar. Bular: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy jihatlarining bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Davrlar bo'yicha o'rganilganda eng ko'p agressiyaga moyillik o'smirlik davriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G'.B. Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga quyidagi shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

- tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'z-o'zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi;

- xulqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; - ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo);

- o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni); - ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-ona tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi. Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishiga olib keladi. Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qolgan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni



konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi; - shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi); - o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – «Terzit kompleksi» (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

- o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi – kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy me'yorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishga olib keladi; - o'smirda nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarining bosilishi (o'qituvchilar tomonidan o'smirning o'zlashtira olmasligi, tarbiyasizligi, u bilan gaplashish befoydaligini ta'kidlash); - ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish). Agressiv xulq shakllanishida «agressor» va «qurbon» rollari ajratiladi. Maktabdagi «agressorlar» tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar, ruhiy og'riqqa nisbatan og'riqni his etmaydilar, o'zlarini dominant tutadilar, yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni jismoniy kuch ishlatish orqali hal etadilar. Bu ko'proq o'g'il bolalarda kuzatiladi. «Agressorlar» affekt holatlarida o'z-o'zini yetarli darajada idora eta olmaydilar. O'zlarini tengdoshlariga nisbatan kuchliroq his etib, o'zlaridan kuchsiz bo'lganlarni «qurbon» sifatida tanlaydilar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafaqat «agressorlar», balki «qurbonlar» ham pedagog va psixologlar e'tiborini talab qiladi. Ya'ni ushbu toifadagi o'smirlar «ijtimoiy autsayder» atamasi bilan nomlanadi. Ushbu o'smirlar passiv va namoyishkorona turlarga ajratiladi. Passiv tipdagi «qurbonlar» bosiq, hadiksirovchi, qo'rqqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Maktabda, mahallada o'rtoqlari kam bo'ladi. Ikkinchi guruh namoyishkorona tipdagilar uchun «agressorlar»ga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'smirlarda bir vaqtning o'zida agressiya va qo'rqish holatlari namoyon bo'lishi asosida impulsiv, agressiv xulq ko'rinishlari bilan ulardagi qo'rqish va xavotirlanish holatlari birgalikda namoyon bo'lishi, doimiy tarzda kurashga tayyorlik holatlari kuzatiladi. O'zlarining xulqi bilan ular atrofdagilarning noroziligi, agressivligini jalb qiladilar. Bir tomondan, xulqi bilan atrofdagilarning agressiv munosabatlarini o'zlariga jalb qilsalar, boshqa tomondan kuch ishlatish usuli orqali muammolarni hal etishga moyil bo'ladilar. Ushbu toifadagi o'smirlarni tengdoshlari, kattalar yoqtirmaydilar. Agressivlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat emas. Ko'p hollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik holatlari ta'sirida shakllanadi: Charchash. Agar o'smir haddan ziyod charchagan bo'lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi. O'z-o'zini negativ idrok etish. «Men yomon odamman. Shuning uchun o'zimni shunday tutaman». Tobora yomonlik hissi o'smir uchun chuqur, ma'lum bir hatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik xolati – ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o'smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og'riqning shakllanishiga olib keladi. Agar o'smir insonlar bilan munosabatlarda salbiy tajribaga ega bo'lsa, u ertaroq himoyalanihga intiladi. Ko'p hollarda uning hayotiy tajribasida shunga o'xshash holatlar uchragan, o'zi uchun xavfli deb hisoblagan vaziyatdan himoyalanihga harakat qiladi. O'smirda ijtimoiy muhitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o'rnatilmaganligi, o'zini himoyasizqo'rqqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Xulosa qiladigan bo'lsak, o'smirni yosh bola sifatida qabul qilsakda, unda kattalarga xos sifatlar shakllanganligini hisobga olib, uning fikrlarini, qarashlarini, hohishlarini, takliflarini e'tiborga olish muhimligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Amaliy nuqtai nazardan, tajovuzkorlik insonning tug'ma emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida orttirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarga tayyorgarligining kuchayishi sifatida qaraladi. Sifat xususiyatlariga ko'ra, tajovuzkorlik konstruktiv va buzg'unchi o'rtasida

farqlanadi. Birinchisi, mudofaa harakatlarida, qasddan zarar yetkazishda amalga oshiriladi, ijtimoiy moslashishga, to'siqlarni yengib o'tishga va yetakchilikka imkon beradi. Ikkinchisi, boshqasiga jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlar keltirish niyatiga asoslangan konstruktiv bo'lmagan tajovuzkor harakatlar bilan ifodalanadi.

Yo'nalish nuqtai nazaridan, tajovuzkorlik boshqalarga va o'ziga qaratilgan. Shunga ko'ra, getero-agressiv – haqorat, kaltaklash, so'kinish va o'z-o'ziga zarar yetkazish yoki avto-agressiv reaksiyalar ajralib turadi. Avto-agressiyaning ekstremal versiyasi o'z joniga qasd qilishga urinishdir. Eng aniq dushmanlik harakati boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir. Boshqa mumkin bo'lgan variantlar – dushmanlik, yovuzlik, negativizm, qo'zg'alish, xafagarchilik, shubha, tahdid. O'z-o'zini boshqaradigan tajovuz aybdorlik va o'zini kamsitish hissi bilan birga keladi.

Samarali dushmanlik sizning maqsadlaringizga erishishga, shaxsiy chegaralarni, o'z e'tiqodlaringizni himoya qilishga imkon beradi. Bu ko'pchilikka xos bo'lgan nohaqlikka qarshi xususiyatdir. Agressivlikning zo'rvonligi va chastotasi individual xususiyatlarga, masalan, temperament va xarakterga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga, tasodifiy vaziyat ta'siriga bog'liq. Psixosotseal sabablar bir necha guruhlariga bo'linadi:

Situatsion. Agressiyani bezovta qiluvchi tashqi sharoitlar va fiziologik sharoitlar qo'zg'atadi. Shunday qilib, odamlar haddan tashqari qizib ketganda, tiqilib qolgan xonada bo'lganda, shovqin, tebranishlarga uzoq vaqt ta'sir qilishda tezroq jahldor bo'lishadi. O'z-o'zini nazorat qilish stressli vaziyatda, charchoq, og'riq, jinsiy qo'zg'alish bilan zaiflashadi.

Xulq-atvor. Ushbu omillar guruhiga boshqalar tomonidan nomaqbul deb hisoblangan, mudofaa reaksiyasini keltirib chiqaradigan har qanday xatti-harakatlar kiradi. Masalan, bolaning tajovuzkorligi maqsadsiz o'yin-kulgi, mashg'ulotdan voz kechish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish – ota-onalar va o'qituvchilarning qoralanishiga olib keladigan harakatlar bilan bog'liq.

Shaxsiylik. Agressiv odamlar ko'pincha sangvinik va xolerik temperamentga ega, qo'zg'aluvchan va asotsial xarakterga ega. Dushmanlik xulq-atvori hissiy beqarorlik, asabiylashish, depressiya asosida amalga oshiriladi. Boshqa shaxsiy sabablar – o'z-o'zini hurmat qilishning yetarli emasligi, tavakkal qilishga tayyorlik va hasad.

Mikroijtimoiy. Mikroijtimoiy muhit – bu oila, maktab yoki mehnat jamoasi. Ko'pincha zo'rvonlikni kuzatadigan yoki o'zlari buni boshdan kechiradigan, haqorat, haqoratni boshdan kechiradigan odamlar tajovuzkorlikni namoyish etishga moyildirlar. Shu sababli, disfunksiyali oilalardan chiqqan o'smirlar, huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan odamlar o'rtasida dushmanlikning yuqori darajasi aniqlanadi.

Makroijtimoiy. Agressivlikning sabablari sifatida ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarni ko'rish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida salbiy voqealar targ'ib qilinganda, e'tiborli odamlar g'ayritabiiy xatti-harakatlarni namoyish qilganda (mamlakat rahbari, vazirlar) va ular zo'rvonlik kultiga ko'tarilganda dushmanlik kayfiyati shakllanadi. Provokatsion omil ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy ahvoning pastligi, davlatning moddiy yordamiga qaramlik bo'ladi.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe'l-atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Bizning fikrimizcha, agressiv

harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy – verbal, faol – sust va to'g'ri egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko'plab agressiv harakatlarni tushuntirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari ijtimoiy-psixologik moslashuvining oziga xos xususiyatlari. // Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020.№2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).

2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Ҳ.О. Researching the scope of the professional competence within activities. // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.

3. Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. // International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.

4. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. // Journal for psychologists, 59-64.

5. Gluxanyuk N.S. O'qituvchini kasbiylashtirish sub'ekti sifatida rivojlantirishning psixologik asoslari: Dis.Doktor Psixol. Fanlar: 19.00. P. Yekaterinburg, 2001.-313 b.



**Iskandarova Fotima Ibrohim qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti

**Avezov Olmos Ravshanovich**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori p.f.f.d (PhD), dotsent

## **MARGINAL HOLAT XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada marginal holat, marginal holatga kelib qolish oqibatlari uning salbiy va ijobiy tomonlari, bundan tashqari turli xil o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'lishi haqida so'z boradi. Tahlil qilingan ma'lumotlar marginal holat yoki vaziyatning qanday vujudga kelishi yoki bu holatga kelishning oqibatlari o'rganilgan. Marginallik dunyodagi shaxsning noaniqligi, noaniqligi yoki o'z taqdirini o'zi belgilashining inqiroz holatlari haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** marginallik, marginallik nazariyasi, marginal holat, marginal vaziyat, marginal shaxs.

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ХАРАКТЕРИСТИК МАРГИНАЛЬНОГО СТАТУСА**

**Аннотация.** В данной статье речь пойдёт о маргинальном состоянии, последствиях маргинализации, её отрицательных и положительных сторонах, а также появлении различных специфических черт. Анализируемые данные изучают, как возникает маргинальное состояние или ситуация или последствия этого состояния. Маргинальность освещает кризисные ситуации неопределённости или самоопределения личности в мире.

**Ключевые слова:** маргинальность, теория маргинальности, маргинальный статус, маргинальная ситуация, маргинальная личность.

### **PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FEATURES OF THE MARGINAL STATE**

**Abstract.** This article will talk about the marginal state, the consequences of falling into a marginal state, its negative and positive aspects, in addition to the appearance of various distinctive features. The data analyzed are studied how a marginal state or situation arises or the consequences of arriving at this state. Marginality has been covered by cases of crisis of uncertainty, uncertainty, or self-determination of an individual in the world.

**Key words:** marginality, theory of marginality, marginal status, marginal situation, marginal personality.

**Kirish.** Marginal holat - bu odamlar faoliyati va hayotining turli sohalarida yuzaga keladigan murakkab va dolzarb hodisa. Bu g'ayrioddiy, ekstremal yoki beqaror sharoitlarga olib keladigan ko'plab noaniq va qarama-qarshi omillar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunday holatlar iqtisodiyot, siyosat, fan, ta'lim va madaniyat kabi turli sohalarda yuzaga kelishi mumkin va tegishli tizimlarda katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Marginal vaziyatlarga iqtisodiy inqiroz, siyosiy qarama-qarshilik, texnologik yutuqlar, ekologik ofatlar yoki ijtimoiy o'zgarishlar kabi bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin. Ular rivojlanishning sekinlashishiga, aholi turmush darajasining pasayishiga, ijtimoiy keskinlik va nizolarning kuchayishiga, shuningdek, yangi mafkuraviy va madaniy tendensiyalarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ishning maqsdi va vazifasi. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi marginal holatga kelib qolish oqibatlari uning salbiy va ijobiy tomonlari, ushbu holat bo'yicha nazariy yondashuvlar va tadqiqotlar, marginal holatning dolzarbligini, zamonaviy tadqiqotlar muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot ishi marginal vaziyatning odamlar o'rtasidagi o'zari ta'siriga munosabatlarini tahlil

qilish imkonini beradi, shuningdek keyingi tadqiqotlar va ma'lumotlar istiqbolli izlanishlarni taklif qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Marginallik nazariyasi paydo bo'lishida Chikago sotsiologiya maktabi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy kontekst - 20-asrning boshlarida marginallik tushunchasi ko'pincha kasallik, anomallik yoki pastlik bilan bog'liq. Psixologik va sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi bilan bu yo'nalishda boshqa yondashuvlar paydo bo'la boshladi. Marginallik tushunchasining paydo bo'lishi (lotincha margo - chekka, chegara) 30-yillardagi Chikago sotsiologiya maktabi faoliyatiga borib taqaladi. XX asr U.R. Park tomonidan Amerika jamiyatidagi migrantlar holatini tavsiflash uchun kiritilgan va fazoviy harakatchanlik bilan bog'liq. T. Shibutani marginal shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bo'lgan an'anaviy urg'udan chetga chiqadi va "ta'rifi bo'yicha" marginallik tushunchasini ta'kidlaydi. U boshqa olimlar tomonidan ilgari tasvirlangan marginal shaxsning psixologik xususiyatlari majmuasi faqat cheklangan miqdordagi odamlarga tegishli deb hisoblaydi. T. Shibutaning ta'kidlashicha, marginal maqom va shaxsiyatning buzilishi o'rtasida zaruriy bog'liqlik yo'q, chunki marginal guruhlarda o'z jamoalarini shakllantirish va ularning qadriyatlariga rioya qilish ehtimoli ko'proq. D.Golovenski ham "marginal shaxs" tushunchasini "sotsiologik fantastika" deb atagan. Nega aynan sotsiologik fantastika? Chunki marginal shaxslar nafaqat salbiy tomonlama balki ijodiy tomonlama ham kengroq darajada rivojlana boshlangan edi [4,9]. Masalan, E.Rashkovskiyning yozishicha marginal vaziyat nevrozlarni kelitirib chiqarishi bilan birgalikda, dunyoni yangicha idrok etish va anglash manbai bo'lishi mumkin "Intellectual va diniy ijodning notrivial shakllari". Jahon madaniyati tarixiga retrorespektiv qarash ko'rsatadiki insoniyatning ma'naviy tarixidagi ko'plab yangilanish tendensiyalari (jahon dinlari, buyuk falsafiy tizimlar va ilmiy tushunchalar, dunyoni badiiy aks ettirishning yangi shakllari) ularning paydo bo'lishiga ko'p jihatdan marginal shaxslarga bog'liqdir.

**Tahlil va natijalar.** Marginal vaziyatlarni yoki holatlarni tavsiflash ularning paydo bo'lishiga olib keladigan murakkab va qarama-qarshi omillarni tahlil qilishni, shuningdek, mumkin bo'lgan oqibatlarni va ekstremal sharoitlarga qarshi kurashishning hosil bo'ladigan strategiyalarini aniqlashni talab qiladi. Bundan tashqari, marginallashtirilgan vaziyatlarni o'rganish global tendensiyalar va jarayonlarni tushunish, shuningdek, turli sohalarda samarali strategiya va siyosatlarini ishlab chiqish uchun foydali bo'lishi mumkin. Marginal vaziyat tushunchasi marginallik tushunchasi bilan belgilanadi. E'tibor berib, marginal vaziyat ijtimoiy, madaniy va tarixiy qatlamlarning kesishishi sifatida o'rganiladigan muayyan hodisani ma'lum bir vaqtning o'zida ko'rib chiqishni anglatadi, bu bizga muayyan vaziyatda sabablar ularning mohiyati va oqibatlarini batafsilroq aniqlash va o'rganish imkonini beradi. Hozirgi kunda marginal vaziyatni tavsiflash muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan g'ayrioddiy yoki kutilmagan holatlar bilan bog'liq xavf va mumkin bo'lgan oqibatlarni baholashni o'z ichiga oladi. Biz ushbu javobda marginal vaziyat xususiyatlarining asosiy qismini ko'rib chiqadigan bo'lsak, g'ayrioddiylik marginal vaziyatlar odatda odatiy holatlardan yoki me'yordan farq qiladigan nooddiy yoki kamdan-kam holatlar bilan tavsiflanadi. Noaniqlik esa marginal vaziyatlar o'z mohiyatiga ko'ra noaniq bo'lishi mumkin, bu esa sub'ektning qarori yoki xatti-harakatida noaniqlikka olib kelishi mumkin. Mojaro marginal vaziyatlar, ayniqsa jamiyat tomonidan kutilgan me'yorlar yoki standartlarning buzilishiga olib keladigan bo'lsa, ziddiyatga olib kelishi mumkin. Tavakkalchilik marginal vaziyatlar, ayniqsa noaniqlik yoki g'ayrioddiylik bilan bog'liq bo'lsa, xavflarni o'z ichiga olishi mumkin. Ijodkorlik marginal vaziyatlar ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin, chunki ular yangi imkoniyatlar va yondashuvlarni yaratishi mumkin. Talqin qilishdagi muammolar, ya'ni marginal vaziyatlar, ayniqsa, nooddiy yoki nostandart bo'lsa, talqin qilishda muammolarga olib kelishi mumkin. Marginal vaziyat istalmagan oqibatlarga yoki istalgan natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatda qarama-qarshi omillar mavjud bo'lganda yuzaga keladigan holat. Bunday vaziyatni baholash unga ta'sir etuvchi barcha omillarni tahlil qilishni va salbiy oqibatlarni minimallashtirish va mumkin bo'lgan foydani maksimal darajada oshirish uchun tavakkalni boshqarish usullarini qo'llashni talab qiladi. Ushbu izlanishda biz marginal vaziyatni baholashning asosiy jihatlarni, jumladan



omillarni aniqlash, xavflarni tahlil qilish va xavflarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz. Marginal vaziyatni baholashda birinchi qadam unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillarni aniqlashdir. Juda ko'plab yozuvchilarning asarlarida marginal shaxsning yuqori ijodiy qobiliyatga ega ekanligini ko'rsatadigan belgilarni ham topish mumkin.

Xulosa. Marginal vaziyat ijtimoiy, iqtisodiy yoki madaniy me'yorlar kontekstida noaniqlikni keltirib chiqaradigan me'yorlar yoki standartlardan chetga chiqadigan shaxsiy yoki ijtimoiy munosabatlar bilan tavsiflanadi. Bu holat mojaro, tashvish yoki munozaraga olib kelishi hamda ayni paytda innovatsiyalar, xilma-xillik va yangi g'oyalar rivojlanishiga yordam beradi. Marginal holatning yoki vaziyatning vujudga kelish sabablarini o'rganish marginal insonlarda sodir bo'ladigan muammolarga yechim topishga yordam bersa, marginal insonlarning o'z jamiyatida madaniyatida qo'shadigan yangiliklari izlanishlari o'sha madaniyat uchun rivojlanish eshiklarini ochib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Пак Р.Э. Человеческая миграция и маргинальный человек //Американский социологический журнал. – 1928. – Т. 33. – №. 6. – С. 881-893.
2. Заживихина Н. В. Характеристика маргинальной ситуации // Известия Алтайского государственного университета. – 2011. – №. 2-1. – С. 191-194.
3. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik, "KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
4. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. // Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
5. Avezov O.R. Psychological relations between family members. Sscientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949.

**Yaxyoyeva Gulhayo Murot qizi**  
Shofirkon tumani 11-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi psixologi

## **O'QUVCHILARDA KASBIY MAS'ULYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** *Usbu maqolada o'smir o'quvchilarda kasbiy mas'ulyat hissini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va o'quvchilarda kasbiy mas'ulyatni psixologik muammo sifatida o'rganilgan. Bundan tashqari o'smirlarda kasbiy mas'ulyat shakllanishini tadqiq etish sohasida to'plangan amaliy tajribalarni tahlillari amalga oshirilgan. O'smirlarda kasbiy mas'ulyat shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish va boshqa individual-psixologik xususiyatlar bilan bog'liqligini ochib berilgan. Kasbiy mas'ulyat fenomeni va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni; kasbiy mas'ulyat tushunchasini aniqlashtirishga doir nazariyalar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *motivatsiya, qobiliyat, o'smir, his-tuyg'ular, kasb, xarakter, individual tipologik xususiyatlari, stress.*

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ЧУВСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ**

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности формирования чувства профессиональной ответственности у учащихся-подростков и профессиональной ответственности у учащихся как психологическая проблема. Кроме того, проведён анализ накопленного практического опыта в области исследования формирования профессиональной ответственности у подростков. Выявлено изучение психологических особенностей формирования профессиональной ответственности у подростков и их связи с другими индивидуально-психологическими особенностями. Феномен профессиональной ответственности и психологические факторы, влияющие на её формирование; проанализированы теории, касающиеся уточнения понятия профессиональной ответственности.*

**Ключевые слова:** *мотивация, способности, подросток, эмоции, профессия, характер, индивидуальные типологические особенности, стресс.*

## **SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A SENSE OF PROFESSIONAL RESPONSIBILITY IN STUDENTS**

**Abstract.** *In this article, the pedagogical-psychological features of the formation of a sense of professional responsibility in adolescent students and professional responsibility in students are studied as a psychological problem. In addition, analyzes of practical experiences accumulated in the field of research on the formation of professional responsibility in adolescents have been carried out. It is revealed that the formation of professional responsibility in adolescents is associated with the study of psychological characteristics and other individual-psychological characteristics. The phenomenon of Professional Responsibility and the psychological factors that affect its formation; theories to clarify the concept of Professional Responsibility have been analyzed.*

**Key words:** *motivation, ability, adolescent, emotions, occupation, character, individual typological characteristics, stress.*

**Kirish.** Mohiyatan, mas'ulyat tushunchasi insonning atrof – muhit talablariga faol javob berish harakati bilan xarakterlanib, hozirga qadar ushbu masala qator fanlar psixologiya, sosiologiya, pedagogika hamda falsafa kabi fanlar tizimida dolzarb muammosi sifatida o'rganib



kelinmoqda. Biroq, barcha fanlarda mas'uliyat fenomenini tushuntiruvchi yagona konsepsiyalar yoki yondashuvlar mavjud emas. Psixologik mazmunga ko'ra, mas'uliyat fenomeni – javobgarlik, hisob berish kabi ma'nolarni anglatib, unda shaxs imkoniyatini belgilovchi ko'plab psixologik xususiyatlar o'z aksini topgan. Shu bilan birga, mazkur xususiyat mazmunida majburiy yechim va javoblarni talab etuvchi, insonning maxsus qobiliyatlari va istaklari tizimi ham mavjud.

Mas'uliyat tushunchasini ilk bor psixologik jihatdan asoslash holati psixoanaliz ta'limotida ham aks etgan bo'lib, unda mas'uliyatlilikni ta'minlovchi psixologik asos sifatida vijdon tan olinadi. Z.Freydning qayd etishicha, mas'uliyat bu – vijdonning ajralmas qismi hisoblanib, u insonda mavjud bo'lgan ijtimoiy qo'rquv orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy qo'rquv bizni tartibga solib turadi, faoliyat jarayonida munosib harakat qilishni ta'minlab turadi. Ya'ni, ijtimoiy qo'rquv insonda vazifalarga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.

K.Xorni g'oyalarini davom ettirgan neofreydizmning yana bir taniqli vakili E.From birinchilardan bo'lib, mas'uliyatlilikni erkinlik xususiyati bilan bog'lab tushuntirdi. E.Fromning ta'kidicha, mas'uliyatlilik insonda bolalikdan boshlanadi, keyinchalik u ijtimoiy xarakterga ega bo'lib boradi. Bunda inson faoliyati uchun xos bo'lgan mustaqillik, tanlov erkinligi, javobgarlik kabi sifatlar asosiy omildir. E.From erkinlikning ikki turini ajratadi: kutilayotgan va haqiqiy erkinlik. Mana shu ikki tarkib orqali inson o'z-o'zini anglaydi, rejalar tuzadi, natijalarni oldindan ko'ra oladi hamda tanlash erkinligiga ega bo'ladi. Umuman olganda, mas'uliyat muammosini bunday tushunish ko'proq gumanistik hamda ekzistensial yo'nalishdagi psixoterapivtik g'oyalarda o'z aksini topgan.

Muallifning nazaricha, “mas'uliyatlilik” insonning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi hamda ularni ongli harakatlarga almashinuvini ta'minlovchi ko'prikdir.

Xorij psixologiyasida mas'uliyat fenomenini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Shulardan, A.Banduraning ijtimoiy ta'lim nazariyasi o'ziga xos tadqiqot sanaladi. Muallifning aytishicha, shaxsda mas'uliyatlilikning namoyon bo'lishi tashqi vaziyatlar natijasi hamda sabablarga bog'liq sanaladi. Ya'ni, mas'uliyatni anglash muvaffaqiyatsizlikni tushunishdan boshlanadi. Muvaffaqiyatsizlik o'z harakatlarini tartibga solish, o'z-o'zini boshqarish, ichki nazoratning ortishi, keyingi vaziyatlarga tayyor turish kabilarga javob beruvchi psixologik jarayondir. Shu orqali shaxsning tashqi muhit talablariga bo'lgan munosabatlari baholanadi.

Ijtimoiy ta'lim nazariyasining yana bir vakili J.Rotterning so'zlariga ko'ra, mas'uliyatlilik sifatini o'rganish avvalo, insondagi lokus nazorat mexanizmini o'rganishdan boshlanadi. Ushbu ta'limotga muvofiq, insonlar ikki toifaga bo'linadi. Birinchi toifa kishilari mas'uliyatdan yiroq turuvchi shaxslar sanalib, ular sabablarni tashqaridan qidirishadilar. Ikkinchi tipga mansub kishilar esa, mas'uliyatli shaxslar sanaladi. Ular har qanday sabab – oqibatlarni o'zlaridan, o'z imkoniyatlari va yutqularidan qidirishadilar. Biroq, ba'zi mualliflar, lokus nazorat mexanizmlarini mas'uliyatga tyenglashtirishga qarshi chiqadilar. Ya'ni, faqatgina erishilgan yutuqlar va sabablarni qidirish mas'uliyatlilikni asoslash uchun yetarli emas. Buning uchun insonga xos tiplar masalasini ham tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

V.E.Frankl o'zining “Fikr izlayotgan odam” asarida mas'uliyat muammosiga alohida e'tibor qaratib, unda qadriyatlarining roli mavjudligiga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, muallif mas'uliyat fenomeniga tegishli ikki jihatni ajratadi:

–Inson nima uchun mas'uliyatli;

–U kim uchun va nima uchun mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Birinchi holatda, inson o'z mavjudligini belgilashi uchun hamda o'z qadriyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun mas'uliyatli bo'lishi lozim. Ikkinchi holatda, insonda mas'uliyatlilikni ta'minlovchi kechinma bu irodadir. Ya'ni, mustaqil qaror qabul qilish uchun avvalo, shaxs mas'uliyatli bo'lishi lozim. Demak, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatlilik insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishga sabab bo'ladi.

Tadqiqotchi A.Lenglening so'zlariga ko'ra, mas'uliyatlilik shunchaki faoliyatda paydo bo'lmaydi. U murakkab vazifalarni bajarish, oliy maqsadlarni amalga oshirish, rejalarini

o'zgartirish, qiyin vaziyatlardan chiqib ketish kabi jarayonlarda shakllanadi. Shuning uchun uni o'rganishda ko'plab individual-psixologik xususiyatlarning rolini tekshirib ko'rish lozim. Ushbu mulohazalar muallifning logoterapivtik nazariyasida o'z aksini topgan. Gyeshtalt terapiya ta'limotida ham mas'uliyat fenomeni o'ziga xos tadqiq etilgan bo'lib, unda insonning tashqi muhit bilan chegarasi javobgarlikni yuzaga keltiradi. F.Perlzning aytishicha, tashqi muhit bilan inson o'rtasida doim aloqada chyegara bo'lishi kerak.

Aks holda javobgarlik va mas'uliyatlilik o'z kuchini yo'qotadi. Bizningcha, chegara bu insonning o'z – o'zini anglashi, insonning boshqalar bilan o'ziga xos munosabatlari tizimidir. Manu shu yerda o'zaro hurmat, qadriyatlarga sodiqlik, inson –inson o'rtasidagi munosabatlar sheriklik asosida kechadi.

Rus psixologiyasida ham “mas'uliyat” fenomenini psixologik jihatdan tadqiq etishning o'ziga xos yondashuvlari mavjud bo'lib, ularga S.JI.Rubinshteyn, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.N.Rean, V.N.Drujinina, E.G.Eydemiller, Yu.Ye.Aleshina, V.F.Safin, E.H.Sidorova, V.P.Pryadein, N.A.Golovka, A.A.Grachev, L.I.Dementiy, J.Ye.Zavadskayalarning tadqiqotlarini misol qilish mumkin.

I.P.Pavlov o'zining “Shartli reflekslar” nazariyasida mas'uliyat muammosiga murojaat qilgan ekan u haqda shunday deydi: “Mening javobgarligim va mas'uliyatim bu men bilgan ta'limotdir. Ushbu ta'limot orqali men o'zimning eng yuqori darajamni saqlashga harakat qilaman. Bunga mening olgan bilimlarim va ko'nikmalarim yordam beradi. Demak, muallif ushbu mulohazalari orqali “mas'uliyatlilikni” eng yuqori kognitiv xususiyat deb tan olgan. V.M.Bexterev o'zining “Shaxs psixologiyasidan tanlangan asarlar” nomli monografiyasida, mas'uliyat tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi. Muallifning fikricha, insonlarda mas'uliyat hissining yo'qolishi bu – hodisalarni uzatishdagi ijtimoiy uzilishdir. Shuning uchun har bir inson o'z harakatlariga e'tiborli va ular uchun javobgar bo'lishi lozim. V.M.Bexterev o'z qarashlarida mas'uliyatni ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflab, uni inson hayotining tabiiy va zaruriy sharti sifatida baholaydi.

XX asr boshlariga kelib fanda mas'uliyat fenomeni ikki mazmunda talqin etila boshladi. Ya'ni, birinchi holatda mas'uliyat shaxsning yo'li sifatida talqin etilgan bo'lsa, ikkinchi holatda mas'uliyat tushunchasi sof ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqilgan. Bunday mazmundagi yondashuvlar sifatida B.G.Ananyev, V.G.Tugarinov, V.N.Myasishev, L.I.Dementiy, A.N.Leontyev, V.S.Minkina, A.A.Rean kabi olimlarning tadqiqotlari tan olinadi. B.G.Ananyev mas'uliyatlilikni rasional hodisa sifatida ta'riflab, uning zamirida insonning kasbiy yetukligi, faoliyatga bo'lgan munosabati kabilar yotishini ta'kidlaydi.

“Mas'uliyat” va “mas'uliyatlilik” tushunchalarining psixologik mohiyatini aniqlash ishlarida L.I.Dementiyning izlanishlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Tadqiqotchi boshqalardan farqli o'laroq, muammoni shaxsga xos tashabbuskorlik xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Muallifning so'zlariga ko'ra, mas'uliyat bu – sub'yektning tashabbuskorligi, hayotiy qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan tayyorgarligi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish qobiliyati kabi xususiyatlarning majmuidir. Biroq mas'uliyat hissi hamma joyda ham o'zini namoyon qilavermaydi, balki u muayyan sharoitlarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Ya'ni, har bir shaxsning mas'uliyatli xulq-atvori uchun muayyan vaziyatlar majmui shart hisoblanadi.

### **O'smirlarda kasbiy mas'uliyat shakllanishining psixologik xususiyatlari**

Talabalarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish ishlari o'ta murakkab jarayon sanalib, hozirgi kunda uni chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan ko'plab psixologik-pedagogik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mahalliy muhitda ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish ishlari hozirga qadar ilg'or psixologik tadqiqotlarga zarurat sezmoqda. Chunki, kasbiy mas'uliyat shunchaki ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shakllanib qolmaydi balki, unda talaba shaxsiga xos qadriyatlar tizimi, hissiy-irodaviy soha mazmuni, kognitiv sohani rivoji, kasbiy muvaffaqiyatni ta'minlovchi puxta o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik kabi sifatlarni shakllantirish ishlari nazarda tutiladi. Bizningcha,



oliy ta'lim sharoitida o'quv mashg'ulotlarni mavaffaqiyatli darajada tashkil etish kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning dastlabki bosqichi sanaladi.

Yu.G.Taturning so'zlariga ko'ra, kasbiy mas'uliyat hissini shakllantirish muvaffaqiyatli mashg'ulotlarni tashkil etish qoidalari bilan uzviy bog'liq sanalib, unda asosiy omil bu o'quv motivlari va talabalarning ichki aqliy imkoniyatlari hisoblanadi. Mashg'ulotlar qanchalik qiziq bo'lsa, talabalarning o'quv motivatsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi. Universitetning birinchi bosqich talabalari soha ma'lumotlariga ancha sezgir, qiziquvchan va faol bo'ladi. Ikkinchi bosqichga o'tib ta'lim muhitida o'z-o'zini boshqarish, o'quv faoliyatidagi har qanday qiyinchiliklarga chidamlilik va vazifalarga bo'lgan javobgarlik darajasi ancha oshishi kuzatiladi. Uchinchi bosqichga o'tib talabalarda vazifalarni bajarishga bo'lgan ijodkorlik qobiliyatlari to'liq shakllanadi deb ta'kidlaydi. Mazkur fikr-mulohazalardan farqli o'laroq, A.K.Markovanning fikricha, kasbiy mas'uliyatning namoyon bo'lishi bu professionalikka o'tish sanalib, u quyidagi xususiyatlar orqali tushuntiriladi:

1. Professional ishlash xususiyatlari – yuqori mahsuldorlik va samaradorlik;
2. Faoliyat sub'yektining bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari –kasbiy mahorat, fikrlash uslubi, intuitsiya darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqillik, yuqori darajadagi malakalar va kasbiy kompetensiyalar;
3. Faoliyat sub'yektining individual psixologik fazilatlarini – shaxs sifatida mehnat munosabatlarini rivojlantirish imkoniyati, ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi;
4. Kasbiy yo'nalish orqali o'zini o'zi o'zgartirish – kasbiy faoliyat talablari, kasbiy etikaviy normalar, axloqiy me'yorlar kabilarni o'zlashtirish;
5. O'zini kasbga va kasbni o'ziga moslashtira olish ko'nikmasi, hamkorlik qilishga qobiliyat;
6. Shaxs holatini tavsiflovchi belgilarga ega bo'lish – ijobiy o'z-o'zini anglash, o'z qadriyatini bilish: ijobiy kayfiyatning ustunligi, o'z kasbidan qoniqish, o'zini mutaxassis sifatida qabul qilish, kasbiy motivatsiyaning barqarorligi, tajribaga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

V.I.Slobodchikovning aytishicha, talabalar shaxsida shakllanadigan kasbiy faoliyatga xos shaxslilik sifatleri, o'z mazmunida mas'uliyatlilik xususiyatini aks ettirib, bu muvaffaqiyatli talabalar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyat bo'lajak mutaxassislardan ma'lum bir shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar majmuini talab etib, u orqali isonning kelajakdagi imkoniyatlari baholanadi. Soha uchun kerakli bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirib borish ta'sirida shaxsda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim sifatlar ko'rinishda boshlaydi.

O.N.Shaldina mas'uliyat masalasini tadqiq etar ekan, uning xulosalariga ko'ra, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalar har qanday muloqot vaziyatiga tayyor, o'zaro munosabatlarda hissiy o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasiga ega, boshqalarni o'ziga jalb eta oladigan, o'z manfaatini boshqalar manfaati bilan birlashtirgan, yuqori intellektual qobiliyatlarga ega ta'lim sub'yektlari hisoblanadi. Demak, tabiiy yo'lanishdagi talablardan farqli o'laroq, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi talabalarda, kasbiy mas'uliyatlilikni ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning shakllanganligi yuqori darajada bo'lishi tasdiqlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy mas'uliyatni shakllantirish dinamik xarakterdagi hodisa bo'lib, u domiy ravishda faollikni talab etadi. Ya'ni muvaffaqiyatli talablarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish o'ta ahamiyatli sanaladi.

**Xulosa.** Zamonaviy psixologiyada inson va uning kasbiy sifatleri bilan bog'liq ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazidagi ilmiy masala hisoblanadi. Ya'ni, inson kasbiy faoliyati uchun qanday sifatlar ma'qul yoki kasbiy kamolotini belgilovchi asosiy psixologik xususiyatlar nimadan iborat va hokozo. Mazkur qarashlar o'z-o'zidan kasbiy mas'uliyat tushunchasi ahamiyatini ta'kidlab, unga oid eng ilg'or konsepsiyalar mazmunini o'rganishni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Б.Р. Қодиров Касбий ташхис методикалари. Т. 2002. – 56 б.
2. Байденко В.И. Базовые навыки (ключевые компетенции) как интегрирующий фактор образовательного процесса / В.И.Байденко, Б.Оскарссон // Профессиональное образование и формирование личности специалиста: сб. науч. труд. – М., 2002. – С. 27 - 34.
3. Бандура А. Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000. – 320 с.
4. Баратов Ш.Р. Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане // Автореф. дисс. доктора психол. наук. – Ташкент, 1998. – 37 с.
5. Башев В.В. Психологические условия формирования ответственного действия в подростковом возрасте Текст: автореф. дисс. канд. психол. наук / В.В.Башев. – М., 2000. – 19 с.

**Ostanov Shuhrat Sharifovich**  
Buxoro davlat universiteti  
Psixologiya va sotsiologiya  
kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d, dotsent

## ZAMONAVIY JAMIYATDA O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, psixodiagnostika, psixokonsultatsiya va psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo'yicha amaliyotchi psixologlar, ota-onalar va tarbiyachilarga mo'ljallangan qo'llanmalar ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi muammosining psixologik talqini olib borilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini tadqiq qilish usullarini qo'llash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** depressiya, psixokorreksiya, xulq-atvor, destruktiv, shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishi, agressiya, psixokonsultatsiya, diagnostika.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье анализируется психокоррекция деструктивного поведения у подростков с теоретической и практической точек зрения, разработана программа психодиагностики, психоконсультации и психологического тренинга. Разработаны пособия для практикующих психологов, родителей и воспитателей по психокоррекции деструктивного поведения у подростков. Проведена психологическая интерпретация проблемы психокоррекции деструктивного поведения у подростков. Речь идёт о применении методов исследования психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков.

**Ключевые слова:** депрессия, психокоррекция, поведенческая, деструктивная, становление и психическое развитие личности, агрессия, психоконсультация, диагностика.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF THE FORMATION OF DESTRUCTIVE BEHAVIOUR OF ADOLESCENTS IN MODERN SOCIETY

**Abstract.** This article analyzes destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents theoretically and practically, has developed a program of psychodiagnostics, psychoconstruction and psychological training. Guidelines for destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents have been developed for practicing psychologists, parents, and caregivers. A psychological interpretation of the problem of destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents has been carried out. There is talk of using methods to research destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents.

**Key words:** depression, psyschocorrection, behavior, destructive, personality formation and psychic development, aggression, psychoconsultation, diagnostics.

**Kirish.** O'smirlik yoshi bolalikdan yetuklikka o'tish davri sifatida doimo keskin davr deb hisoblanadi. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davr deb kelingan. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davridan ancha farq qiladi. U eng jiddiy va eng uzoq davom etuvchi davr hisoblanadi. Bu davr mobaynida bolaning atrofga va o'ziga bo'lgan avvalgi munosabatlari sinib, qayta tiklanadi



va o'smirning mustaqil hayotga qadam qo'yish bosqichi shakllanadi. Hayotga qadam qo'yish birdaniga yuz beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, uning biologik, psixologik va ijtimoiy tomonlari o'z qo'zg'aluvchi kuchlari, taraqqiyotining o'z maromi va sur'atlariga ega. O'smirlarning fizik va psixologik taraqqiyotining yuqori, biroq bir-biriga mos bo'lmagan sur'atlari bilan bog'liq holda hali yetarli bo'lmagan ijtimoiy yetuklik jarayoni vujudga kelgan bu ehtiyojlarni har doim ham qanoatlantirib bo'lmaydi.

**Asosiy qism.** Shu sababli o'smirlik yoshida ehtiyojlarining inkor etilishi tez-tez kuzatiladi va kichik yosh davrlariga nisbatan kuchliroq ifodalanib, uni o'smirning psixik va ijtimoiy taraqqiyotida moslikning yo'qligi sababli yengish juda qiyin. Bu qiyin davrda o'smirning ong va kechinmalari maqsadi jinsiy mayl kabi kuchli biologik ehtiyoj bo'lib qolib, u bilan bog'liq bir qancha tajang kechinmalar vujudga keladi, emotsional doira o'zgaradi. Intellektual inkoniyatlar yangi bosqichga ko'tariladi, dunyoqarash kengayadi, yangi qiziqish va manfaatlar paydo boladi. O'smir o'zida yuz berayotgan o'zgarishlarni sezadi, biroq ularning hammasini anglab yetavermaydi va tushunavermaydi. Tengdoshlari bilan uzviy muloqotda, o'zini ular bilan qiyoslab hayotiy munosabatlar doirasini kengaytirish zarurati paydo bo'ladi.

Tengdoshlar fikri, ota-onalar va o'qituvchilar fikriga nisbatan ahamiyatli bo'lib boradi. Yetuklikning kirib kelishi bilan o'smirning ijtimoiy ahvoli, risolaga ko'ra, o'zgaraydi - u o'quvchi bo'lib qolaveradi va ota-onasi qaramog'ida bo'ladi. Shuning uchun uning ko'pgina talablari (da'volari) yengilmas qiyinchiliklarga olib keladi, nizo yoki real voqelik bilan ziddiyatga kirishadi. O'smirlik davri inqirozining psixosotsial sababi ham shunda paydo bo'ladi.

Hayot tarzini amalda o'zgartirib bo'lmaslik o'smirda, psixologlar tomonidan shu yoshga xos deb ko'riladigan, orzularni vujudga keltiradi. Ba'zan o'smirlar, ayniqsa, o'z istak-hohishlari va ularni qanoatlantirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni jiddiy kechirayotganlari, o'z orzularini maktabdan va ota-ona uyidan tashqarida amalga oshirishni qaltis yo'llarini qidirishga kirishadilar. Bunday hollarda, o'smirlar ko'cha "qo'lga tushib" qoladilar, ular maktabni tashlab, shunday maktabdan "uzilib" qolgan bolalar guruhiga tushib qoladilar, bu esa darbadarlik va xulq-atvorning asotsial ko'rinishlarga olib keladi. Agarda o'smir o'zida bilim va estetik ehtiyojlar, ma'naviy-axloqiy komillikka intilish kabi barqaror shaxsiy manfaat va xulq-atvor motivlarini yetarli darajada shakllantirsa, o'tish davri inqirozi ancha yengil o'tadi. O'smirning ibratli kishilarni nazarda tutib ish ko'rishi, oliy va istiqbolli maqsadlarga munosib taqlid qilishi sub'ektning istalgan yo'nalishdagi xulq-atvori, emotsiya va axloqini aniqlashga qodir. Bu kabi mo'ljalli ish tutish xulq-atvorning turli yo'nalgan motivlar qarama-qarshiligiga barham berish yoki ularni qaysidir ma'noda tekislash va o'smirlarni yanada ichki uyg'unligini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga o'smirlik davri L.V.Vigotskiy (1960) ifodalaganidek, birgina formula bilan qamrab olinishi mumkin emasligini unutmaslik lozim. Uning xususiyatlarini tushunish uchun ushbu davrning psixik taraqqiyotiga dahldor ichki harakatga keltiruvchi kuch va ziddiyatlar o'rganilishi, o'smirlik davrining barcha belgilar majmui tabiatini ochuvchi o'ziga xos psixologik va ijtimoiy yutuqlarni ajratish lozim. Bunday bosh psixosotsial muvaffaqiyatlardan biri ilk bosqichda (12-14 yoshda), L.I.Bojovich fikriga ko'ra, o'smirlar o'z fikrini ifodalash va o'zini namoyon qilish imkoniyatini yaratuvchi o'z-o'zini anglash bosqichi, yakunlovchi bosqich (15-17 yosh) da esa o'z kelajak muammosini ilk bosqichga xos orzu havaslar asosida emas, balki o'zining haqiqiy imkoniyatlarini va tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda hal etish zarurati bilan bog'liq o'z taqdirini o'zi belgilash hisoblanadi. O'smirlarning u yoki bu ijtimoiy vaziyatga nisbatan xulq-atvor reaksiyasining hali psixologik bo'lmagan, ammo o'zida uning shunga aylanish xavfini yashirgan o'ziga xos ko'rinishlaridan "oppozitsiya"(qarshilik), "imitatsiya" (taqlid), "kompensatsiya" (og'ishlarning yo'qolishi), "giper-kompensatsiya", "emansipatsiya" (ozodlikka chiqish), "guruhlanishi", shakl-lanayotgan jinsiy mayllar bilan sharhlangan ayrim reaksiyalar (o'zgarishlar)ni sanab o'tish zarur.

"Oppoziitsiya" reaksiyasi - bu faol qarshilik. O'smirda kutilmagan yuqori talablar, kuchi yetmaydigan ish, ota-ona yoki tarbiyachilarning yetarli darajada e'tibor bermasligi buning sababi bo'lishi mumkin. Oppoziitsiya bolalikda paydo bo'lib, o'smirlik davrida ham saqlanib qoladi.

“Imitatsiya”(taqlid) reaksiyasi ma'lum timsolga taqlid qilishga intilishda namoyon bo'ladi. Taqlid timsoli - asotsial bo'lsa, bunday reaksiya xulq-atvor buzilishi sababi bo'ladi.

“Giperkompensatsiya” reaksiyasi o'smirning o'zi kuchsiz bo'lgan sohada yutuqqa erishishga intilishida ifodalanadi. Muvaffaqiyatsizlik ayrim hollarda asab buzilishlari bilan yakun topadi.

“Emansipatsiya” reaksiyasi kattalarning nazorati, qaramog'i va homiyligidan ozod bo'lishga intilishda namoyon bo'ladi. U kattalarning tartiblari, qonun va “andoza”lariga ham yoyiladi. Ozod bo'lish ehtiyoji mustaqillik, o'zini shaxs sifatida namoyon qilish, tan oldirish uchun kurash bilan bog'liq. Kundalik xulq-atvorda - bu “o'zicha” hamma ishni bajarmoq, keskin hollarda - undan ketish yoki qochishdir. AQShda bu hodisa ofatga aylandi: 1970 yilda 13-17 yoshlardagi 600 ming o'smirlar oilalari va internatlardan qochib ketdi. Rossiyada bunday hodisalar nisbatan kam sodir etilib, xulq-atvorning patologik buzilishlari sifatida baholanadi.

“Guruhlanish” reaksiyasi - filogenetik omma instinktidir. O'smirlar orasidagi guruhlar o'zlarining hali yetarlicha o'rganilmagan ijtimoiy-psixologik qonunlari asosida vujudga keladi va faoliyat yuritib, ular orasida “avtonom axloq” deb nomlanuvchi guruh ota-onalar, maktablar va qonunlar talablariga mos kelmaydigani ko'proq xavf tug'diradi. U ayniqsa voyaga yetmagan huquqbuzar va jinoyatchilarda kuchli ifodalangan. Aniqlanishicha, huquqbuzarlikning katta qismi o'smirlik guruhlari tomonidan sodir etilar ekan. Aynan guruh pedagogik qarovsiz o'smir xulq-atvorining boshqaruvchisi hisoblanadi. Ayniqsa, giyohvand (narkoman)lar, ijtimoiy tartibsiz, beqaror, asotsial xulq-atvor malakasiga ega o'smirlar guruhlarga oson birikadilar. Shu yerning o'zidayoq jinsiy mayllar bilan bog'liq reaksiyalarni ko'rsatib o'tish zarur. Ko'rsatilgan jinsiy reaksiya ko'rinishlari tarqalganligi ancha yuqori.

Bu yerda keltirilgan ko'pgina reaksiyalarni o'smirlik me'yor doirasida ko'rib chiqar ekanmiz, shu bilan birga ularning hech bo'lmaganda patologik ko'rinishlarga o'tish mezonlarini belgilab o'tish zarur. Masalan, A.E.Lichko (1977) fikricha, bu xil reaksiyalar quyidagi hollarda patologiyaga aylanishi mumkin, agarda:

- 1-ular o'zlari vujudga kelgan vaziyat va mikro guruhlar doirasidan chetga chiqsa;
- 2-- ularga nevroitik buzilishlar qo'shilsa;
- 3-generalizatsiyaga moyillik rivojlansa, ya'ni har xil vaziyatlarda paydo bo'lish yoki nomutanosib qo'zg'atuvchilar tomonidan yuzaga kelish qobiliyatining rivojlanishi;
- 4-patologik stereotip xarakteri (xususiyati) namoyon bo'lsa;
- 5-ma'lum jamiyatda ruxsat etilgan xulq-atvor buzilishlarining “cho'qqisidan” dan oshsa;
- 6-ular ijtimoiy moslashuvni buzsa yoki qiyinlashtirsa.

Bu reaksiyalar patologiyaga aylangach, turli xulq-atvor ko'rinishlar, turli delikvent xatti-harakatlar (mayda o'g'rilik, haqorat, bezorilik va h.k), uydan qochish va darbadarlik, mastlik, fohishabozlik, giyohvandlik, suitsidal harakatlar va boshqa shaxs kasalliklari toifasiga doir buzilishlarni keltirib chiqarish mumkin.

So'nggi yillarda JSSTning maxsus komissiyalari tomonidan o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, butun dunyoda psixik kasalliklarning, jumladan shaxs kasalliklarining ham, keskin o'sishi kuzatilmoqda. Afsuski, bolalar va o'smirlar psixik buzilishlarining tarqalganligi, ular orasida shaxsiy buzilishlar chastotasi to'g'risidagi ma'lumotlar uncha to'liq emas va bir-biriga ziddir. Tajribaga ko'ra, psixonevrologga murojaat etish chastotasi bilan miqdori belgilangan ommaviy nerv-psixik salomatlikni faol baholash natijasi bir-biriga mos kelmaydi. Nerv-psixik patologiyasi ko'rinishlarining tarqalganlik ko'rsatkichlari tafovuti 40 % ga yetadi. Bunday qarama-qarshilik, bola psixikasining favqulodda murakkabligi, ontogenezning keskin bosqichlaridagi yuqori sezgirlik bilan bir qatorda eng yuqori mutanosibligi va jo'shqinligi bilan tushuntiriladi.

Bundan tashqari bolalar va o'smirlarning psixik chegara kasalliklari u yoki bu ko'rinishlarini uchrash chastotasi to'g'risidagi axborotning har xilligi, shuningdek, bu buzilishlarning klinik manzarasi to'liq ifoda etilmaganligi, yagona metodik yondashuv va me'yor, patologiyaning aniq differensial o'lchovlarining mavjud emasligi, xulq-atvor reaksiyalarini izohlashdagi farqlar, shuningdek allaqachon rivojlanib ulguragan og'ishlar

holatidagina tashxis qo'yish ko'rsatmasi bilan ham tushuntirilishi mumkin. Chegara kasalliklari etiologiyasi va epidemiologiyasi sohasidagi zamonaviy bilimlar darajasi ularning tashxisiga (diagnostikasiga) muhim tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Chegara kasalliklari epidemiologiyasi, V.V.Kovalyov ta'kidlaganidek, bolalar psixik salomatligi ahvoli va dinamikasini tekshirishda shaxs-dinamik yondashuvsiz va bolalar hamda, ularni qurshab turgan mikromuhit taraqqiyotini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish usullaridan foydalanmay turib to'liq bo'la olmaydi.

Psixik salomatlikni chegara patologiyasidan ajratish mezonlari muammosi so'nggi yillarda ko'pgina tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda. Ular nerv-psixik salomatlik og'ishlarining boshlang'ich ko'rinishlarini mualliflar tomonidan turlicha nomlangan o'ziga xos guruhlarga birlashtirib ajratib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bu muammo taraqqiyotning keskin davrida nerv-psixik salomatlik ahvolini tahlil qilishda o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Organizmning o'tish davrlarida fiziologik qayta tuzilishi ta'sirchanligini o'zgartiradi, uning ichki va tashqi omillar ta'sirining sezuvchanligini oshiradi. Psixologik ta'sirlarga javob berishda ham yuqori chidamsizlik kuzatiladi. Organizmning patologik reaksiyalarini odatda yuzaga keltirmaydigan omillar ham patogen ahamiyatga ega bo'lib boradi. Markaziy nerv tizimining kuchli qo'zg'alishi va faoliyatidagi murakkab tuzilishining o'ziga xos omillari muhit bilan o'ralgan organizm va alohida tizimlar orasidagi o'zaro ta'sir xususiyatini o'zgartirib, nerv-psixik kasalliklari vujudga kelishiga asos yaratadi.

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi instituti tomonidan so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda o'z ichiga motivlashmagan o'jarlik, harakatli qo'zg'alishlar, qo'rquv, patologik odatlarni olgan nevrotik va patoxarakterologik turdagi nerv-psixik og'ishlarning ortishi hollarida ontogenezning keskin davrlari ahamiyati aniqlandi. Bu kabi og'ishlar bir qator 3-4 yoshli bolalarda topilib, keskin davrning o'tishi bilan bu buzilishlar miqdori kamaydi, shu bolalarning 5-6 yoshida esa, ya'ni ontogenezning keyingi keskin bosqichiga o'tish chegarasida bu og'ish yana sezilarli darajada o'sdi (Shashkova I.A.). Bulardan keyingi keskin davrda, bolalarni maktabda o'qitilishining birinchi yilida tekshirilganda, bundan-da yuqori natijalar olindi. Klinikaga qadar darajadagi nerv-psixik og'ishlar ko'pgina birinchi sinf o'quvchilarida ham kuzatildi. Shu bilan bog'liq ravishda, bu kasalliklarni qanday qilib izohlash mumkin: bolalarning maktabga kirishiga doir ijtimoiy ahvoli o'zgarishlari bilan bog'liq moslashuv (adaptatsiya) hodisalari sifatidami yoki asosan inqiroz davrining biologik mohiyatiga ega endogen neyrohumoral (gormonal) o'zgarishlar natijasi sifatidamiq, degan savol tug'iladi. Keskin davrning o'tishi bilan kasallik belgilarining sezilarli kamayishi biologik omillar ahamiyati to'g'risida guvohlik bersa-da, birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashmasligida ijtimoiy sharoitlar ahamiyatini ham hisobga olish zarur. Bolalar va o'smirlar orasida nerv-psixik kasalliklari u yoki bu ko'rinishlarining tarqalganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni salmoqli me'yorlar bo'yicha takroriy va yoppasiga o'tkazilgan tadqiqotlar berishi mumkin. Bu kabi boshlang'ich va uncha ifodalanmagan hollarning faol va o'z vaqtida namoyon bo'lishi barqaror buzilishlarning ilk terapiyasi va amaliy profilaktikasiga imkon berishi mumkinligi uchun, ular nafaqat ilmiy, balki amaliy munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalar va o'smirlar nerv-psixik salomatligi tadqiqotlari bu davr- yetuklik davri salomatligi asosi bo'lganligi uchun va bu ontogenezning nisbatan katta bo'lmagan davri bir qator keskin bosqichlarni – o'smirning o'zi va atrofidagilari uchun eng murakkab davr bo'lmish pubertat (jinsiy yetilish) davri kabi eng muhim davrlarni – o'z ichiga olgani uchun ahamiyatga egadir.

12 yoshli o'smirlarning nerv-psixik salomatligi tekshirilganda, bolalarning bir qismida astenonevrotik xarakterdagi og'ishlar ham mavjudligi aniqlandi. Bolalar uyquning buzilishi, o'ta charchash, bosh og'rig'i, yomon ishtaha, ishga layoqatning pasayishi, ayrimlari esa oftob yoki transportga chidamsizlik, bosh aylanishi, hushidan ketish hollari (vegetativ-qon tomirlari kasalliklari)dan arz qilsalar, boshqalarida asosan nevrotik hodisalar kuzatiladi: turli miyaga o'rnashib qolgan odatlar, qo'rquvga moyillik, tungi enurez, oyparastlik, alahsirash, ko'ngli noziklik, yig'loqilik va b. Agar 12 yoshli bolalarda, ya'ni pubertat davrining birinchi fazasida u yoki bu og'ishlar aniqlangan bo'lsa, ikkinchi fazasi - 14-15 yoshli o'smirlarda kasalliklar chastotasi yuqori bo'lib chiqdi, shuningdek bu kasalliklar 8-sinf o'quvchilarida ham kuzatildi.



Bu o'smirlarning 16 yoshida astenonevrotik hodisalar miqdori kamayib, alohida hollardagina namoyon bo'lgan.

**Xulosa.** Shunday qilib, bu tadqiqotlar natijasi o'smirlarning astenonevrotik xususiyatiga ega shikoyatlarining vujudga kelishida psixofiziologik pubertat perturbatsiyalar ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga anamnestik (kasallik tarixiga doir) ma'lumotlar tahlili homiladorlik, tug'ruq patologiyasi, jismoniy holsizlanish kabi o'smirlar nerv-psixik salomatligidagi turli og'ishlarning vujudga kelishidagi salbiy biologik omillar haqida so'z yuritishga imkon beradi. Sog'lom bolalar va o'smirlar bilan nerv-psixik salomatlik og'ishlariga ega bo'lgan o'smir va bolalar anemnezi ma'lumotlarini qiyoslab tahlil qilinganda, ular orasidagi farqlar ko'pgina mikroijtimoiy sharoitlar (ota-onalar savodxonligi darajasi, oila byudjeti, uy sharoitlari va b) bo'yicha ham kuzatildi. Ayniqsa, ichki oilaviy munosabatlarda (oilalarning xarakter xususiyatlari, maishiy ichkilikbozlik va surunkali alkogolizm bilan bog'liq nizo va ajralish hollari) ham bu farqlar ancha katta ekan. Tekshiruv natijalari bolalar va o'smirlar nerv-psixik salomatligining ko'p omilliligi haqida guvohlik beradi va uning buzilishlari vujudga kelishida somotogen, psixogen va sotsiogen etiologiyasi (kelib chiqishi)ni farqlash imkonini beradi.

Tanlanmagan ommaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki qarama-qarshi holat - salomatlik va kasallik orasida ko'pincha aniq chegara bo'lmaydi. Bu ayniqsa, nerv-psixik kasalliklariga tegishli bo'lib, shu sababli chegara holatlari eng dolzarb tibbiy va biologik muammolardan biri bo'lib qoldi. Salomatlikdan kasallikka o'tishida ketma-ket o'rin almashuvchi fazalar mavjud: kasallikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan eng yuqori tajangligi va kamayishi, moslashuv mexanizmlarini, ularning faollashuvini o'z ichiga olgan. Psixogigiena va psixiatriya oldida moslashuv mexanizmlari tajangligini qanday klinik holatlar aks ettiradi, ularning kamayishi to'g'risida nima guvohlik beradi, eng birinchi kasallik belgilaridan qaysilari salbiy bashoratga ega, klinik hodisalarning qaysilarini himoyalovchi, kompensatorlik, patologik deb hisoblash mumkin va shunday turdagi klinik va klinikagacha holatlar qancha ko'p uchraydi kabi savollarga javob berish vazifasi turibdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. // Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).
2. Ayapbergenovna, K. U. (2021). Improving the pedagogical profile of deviant behavior of minors through collective creative activity. // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 448-452.
3. Реан А.А. Психология личности.-М.:АСТ; СПб.: Праум-Уеврознак,2007.
- 4.Руденский Й.В.Социальная психология.- Москва-Новосибирск, 1998.-224с.
- 5.Рыбалко Е.В. Возрастная и дифференциальная психология. – Л.: 1999.

Jalilova Munisa Abdurashid qizi  
Bukhara Osiyo International university Master student

## DISTINCTIVE FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF REFLEX IN PSYCHOLOGIST SPECIALISTS

**Abstract.** This article explores the peculiarities of the development of reflex in psychologist specialists. Also, through the development of reflexivity, methods have been identified to ensure the psychological progress of the individual. In addition, clarification of the content and mechanisms of influence of the reflexive approach in ensuring the development of the individual; in different age periods, talk about the features of the development of reflexivity.

**Key words:** reflection, psychologists, cognitive processes, social factors, emotional aspects, interventions, self-awareness, metacognition, professional development.

## PSIXOLOG MUTAXASISLARDA REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada psixolog mutaxasislarda refleksiyaning rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek reflektivlikni rivojlantirish orqali shaxs psixologik taraqqiyotini ta'minlash usullarini aniqlangan. Bundan tashqari shaxs taraqqiyotini ta'minlashda reflektiv yondashuvning mazmuni va ta'sir mexanizmlarini aniqlashtirish; turli yosh davrlarida reflektivlikning rivojlanish xususiyatlarini haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Refleksiya, psixologlar, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy omillar, hissiy jihatlar, aralashuvlar, o'z-o'zini anglash, metakognitsiya, kasbiy rivojlanish.

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИИ У СПЕЦИАЛИСТОВ- ПСИХОЛОГОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности развития рефлексии у специалистов-психологов. Также определены способы обеспечения психологического прогресса личности через развитие рефлексивности. Далее уточняются содержание и механизмы действия рефлексивного подхода в обеспечении развития личности, рассматриваются особенности развития рефлексивности в разные возрастные периоды.

**Ключевые слова:** рефлексия, психологи, когнитивные процессы, социальные факторы, эмоциональные аспекты, вмешательства, самосознание, метапознание, профессиональное развитие.

**Introduction.** The evolution of reflection involves a complex process that is influenced by a variety of cognitive, social, and emotional factors. Psychologists, possessing expertise in comprehending human behavior and cognition, play a crucial role in unraveling the complexities associated with the development of reflection. By utilizing empirical research and theoretical examination, psychologists illuminate the specific characteristics of reflection and its evolution throughout one's lifetime. A key focus of psychologists is the exploration of the cognitive processes that form the foundation of reflection, including the ways individuals participate in introspection, self-awareness, and metacognition to assess their thoughts, emotions, and experiences. Research indicates that individuals enhance their capacity for self-reflection as they mature, enabling them to engage in deeper levels of introspection and self-awareness. Psychologists investigate the cognitive mechanisms involved in this developmental advancement, such as theory of mind and perspective-taking skills, to comprehend how individuals improve their ability to reflect on their internal states and external situations. Additionally, psychologists delve into the impact of social and environmental factors on the development of reflection. They examine how interactions with peers, family members, and

educators influence individuals' reflective skills. Supportive social environments are believed to cultivate a feeling of psychological safety, which promotes honest self-reflection devoid of fear of judgment or criticism. Psychologists also explore the influence of cultural norms and values on reflective practices, recognizing that cultural disparities may affect the importance placed on introspection and self-analysis. Furthermore, psychologists scrutinize the emotional aspects of reflection development, investigating how emotions affect individuals' reflective processes and vice versa. For instance, research reveals that effective reflection is closely tied to emotional regulation skills, as individuals capable of managing their emotions can engage in constructive self-assessment and problems solving more proficiently. Psychologists also examine how traumatic experiences or adverse events in childhood may hinder individuals' ability to reflect on their experiences and derive meaning from them, underscoring the significance of addressing emotional well-being in interventions emphasizing reflection. Apart from unraveling the processes linked to reflection development, psychologists are instrumental in formulating interventions and educational initiatives aimed at enhancing reflective skills.

**Literature review.** Reflection, a process involving profound or analytical thinking about one's own thoughts, actions, experiences, or behaviors, is a fundamental aspect of human cognition and development. It entails introspection, scrutiny, and evaluation of past events, interactions, or choices to derive insights and meaning. Over the years, scholars across disciplines have explored reflection from various perspectives, contributing to a rich body of literature that sheds light on its complexities and implications.

In psychology, research on reflection delves into the cognitive processes underlying this phenomenon. Brown (1978) discusses the concept of metacognition, which refers to knowledge and awareness of one's own cognitive processes. Metacognition plays a crucial role in reflection, allowing individuals to monitor and regulate their thinking processes effectively. By understanding how they think, individuals can engage in deeper levels of introspection and self-awareness.

Furthermore, Schön (1983) introduced the concept of the "reflective practitioner," emphasizing the importance of reflection in professional practice. According to Schön, professionals, including psychologists, engage in reflective thinking to solve complex problems and improve their practice continually. The reflective practitioner actively seeks to understand their actions, assess their effectiveness, and make adjustments based on feedback and new insights.

Social influences on reflection have also garnered attention in psychological literature. King and Hicks (2007) explored the notion of possible selves, which refers to the multiple identities individuals envision for themselves in the future. They found that reflection on possible selves is linked to subjective well-being and ego development. Additionally, research by Baqoyeva (2022) highlights the social and cultural factors that shape reflective practices, emphasizing the importance of supportive environments in fostering honest self-reflection.

Emotional aspects of reflection constitute another significant area of inquiry. Zeidner, Boekaerts, and Pintrich (2000) discuss the role of emotional regulation in reflection, noting that individuals with strong emotional regulation skills are better equipped to engage in constructive self-assessment and problem-solving. Conversely, traumatic experiences or adverse events may hinder reflection development, underscoring the importance of addressing emotional well-being in interventions (Brown, 1978).

In response to the findings from these studies, psychologists have developed interventions aimed at enhancing reflective skills. For example, mindfulness practices, such as meditation and deep breathing exercises, have been shown to promote self-awareness and critical thinking (Schön, 1983). Similarly, journaling tasks and cognitive-behavioral methods have been effective in fostering reflection and metacognitive abilities across different age groups and settings (Zeidner, Boekaerts, & Pintrich, 2000).

Overall, the literature on reflection provides valuable insights into its cognitive, social, and emotional dimensions. By understanding the processes underlying reflection and its implications



for personal and professional development, psychologists can design interventions that empower individuals to cultivate their reflective capacities effectively.

**Results.** The examination of cognitive, social, and emotional dimensions of reflection provides valuable insights into its evolution. Research highlights the role of cognitive processes such as introspection and metacognition in reflection development (Brown, 1978). Social factors, including supportive environments and cultural influences, shape individuals' reflective practices (Schön, 1983). Emotional regulation skills are essential for effective reflection, and interventions targeting emotional well-being can enhance reflective capacities (Zeidner, Boekaerts, & Pintrich, 2000).

Psychologists' interventions aimed at enhancing reflection have shown promising results. Strategies such as mindfulness practices and journaling have been effective in fostering self-awareness and critical thinking. These interventions contribute to the development of reflective skills across various populations and settings.

**Discussion.** The findings underscore the multifaceted nature of reflection and the importance of considering cognitive, social, and emotional factors in its development. Psychologists' role in crafting interventions tailored to enhance reflective skills is crucial for fostering personal and professional growth. By addressing emotional well-being and cultural influences, psychologists can promote reflection effectively in diverse populations. Further research is needed to explore the long-term effects of interventions and to identify additional strategies for enhancing reflection.

Leveraging their expertise in psychological theories and methodologies, psychologists devise strategies to foster self-reflection and metacognitive abilities in individuals across various age groups and environments. These interventions may involve mindfulness practices, journaling tasks, or cognitive-behavioral methods designed to enhance self-awareness and critical thinking. In conclusion, psychologists offer invaluable insights into the distinct facets of reflection development, enriching our comprehension of how individuals acquire knowledge, evolve, and derive significance from their encounters. By scrutinizing the cognitive, social, and emotional dimensions of reflection, psychologists lay the groundwork for developing interventions that empower individuals to nurture their reflective capacities and encourage personal development and well-being. The cultivation of introspection among psychologists is a complex procedure that holds significant importance in their professional aptitude (Aleksieienko-Lemovska L. 2022). The development of reflective skills among psychologists is a intricate and multifaceted process, involving a range of stages and elements that contribute to their overall professional expertise and development. This aspect is of paramount importance as it significantly influences their capacity to comprehensively comprehend and assess their own thoughts, actions, and behaviors within a professional context. Moreover, reflexivity within the field of psychology encompasses the practice of continuous self-evaluation, introspection, and self-awareness to augment cognitive capabilities, address motivational influences, and enhance overall performance within their clinical practice. The development of reflection in psychologists is a complex and multifaceted process influenced by various factors. These factors include personal characteristics, educational and professional experiences, cultural background, and the specific field of psychology in which one specializes. Psychologists engage in self-reflection to deepen their understanding of thoughts, emotions, biases, and their impact on professional practice. This process is crucial for enhancing self-awareness and self-regulation skills. Furthermore, psychologists critically analyze theoretical frameworks, treatment approaches, and ethical considerations through reflection. They seek insight into their behavior and identify areas for improvement in interactions with clients and colleagues. Overall, reflection is a continuous process that allows psychologists to gain deeper self-knowledge, improve their practice, and provide more effective and ethical care for clients. Reflection plays a pivotal role in shaping psychologists' practice and ensuring high-quality care for clients. By honing self-awareness and introspective skills, psychologists navigate human behavior and emotions more effectively. Reflection is the act of engaging in profound or analytical thinking regarding one's own

thoughts, actions, experiences, or behaviors. This process entails introspection, scrutiny, and evaluation of previous events, interactions, or choices to derive insights, derive knowledge from experiences, and derive significance from them. Reflection commonly includes self-questioning, consideration of alternative viewpoints, and identification of strengths, weaknesses, and areas necessitating enhancement.

Across diverse domains such as education, psychology, and professional advancement, reflection is deemed a beneficial mechanism for personal and professional advancement. It enables individuals to cultivate self-awareness, hone their competencies, and augment their comprehension of themselves and their surroundings. Reflective practice is frequently applied in vocations like teaching, counseling, and healthcare to elevate decision-making, issue resolution, and interpersonal connections.

In essence, reflection constitutes a cognitive procedure that encompasses intentional and methodical scrutiny of one's thoughts, emotions, and deeds, culminating in profound comprehension, progress, and evolution.

The evolution of reflective abilities among psychologists pertains to the advancement of their capacity for introspective thinking, self-awareness, and critical examination over the course of their careers and professional trajectory. It involves the acquisition of skills, attitudes, and behaviors associated with introspection, scrutiny, and experiential learning within the realm of psychology.

This developmental process unfolds gradually and is impacted by a variety of factors, such as educational background, training initiatives, clinical exposure, mentorship, individual traits, and work environments. Psychologists utilize reflective practices to augment their clinical efficacy, enhance therapeutic results, and foster personal as well as professional development.

The progression of reflective skills in psychologists encompasses multiple phases, starting from initial exploration and consciousness of one's thoughts and behaviors to more sophisticated levels of critical scrutiny, integration of theoretical knowledge with practical application, and continual learning and adjustment. It is characterized by an ongoing cycle of self-assessment, seeking feedback, and self-directed education aimed at enhancing professional proficiency and improving client welfare.

In conclusion, the cultivation of reflective capacities in psychologists is crucial for nurturing self-awareness, refining clinical competencies, and encouraging ethical and efficient conduct within the discipline of psychology. It serves as a pivotal element in shaping psychologists' professional identity, skills, and dedication to perpetual learning and advancement.

This continuous process enables them to refine theoretical perspectives, interventions, and ethical considerations, enhancing the standard of care provided. This article explores the significance of reflection in psychology, shaping professional identity and impacting client outcomes. Reflection also allows psychologists to foster a sense of empathy and understanding towards their clients, leading to more meaningful therapeutic relationships. By continuously examining their beliefs, values, and biases, psychologists can provide a safe and supportive environment for clients to explore their thoughts and feelings. This introspective process not only benefits the client but also contributes to the psychologist's personal growth and development. Through reflection, psychologists can adapt their therapeutic approaches to better meet the needs of diverse populations and address systemic issues that impact mental health. Ultimately, the practice of reflection in psychology is essential for promoting positive change, both within the profession and in the lives of those seeking psychological support.

Conclusion: The cultivation of reflective capacities in psychologists is imperative for navigating the complexities of human behavior and fostering personal and professional growth. By unraveling the cognitive, social, and emotional dimensions of reflection, psychologists lay the foundation for interventions aimed at bolstering reflective skills. Through ongoing reflection, psychologists refine their practice, adapt therapeutic approaches, and cultivate meaningful therapeutic relationships with clients. This introspective process not only benefits clients but also

contributes to psychologists' personal development and the advancement of the profession. Ultimately, the practice of reflection in psychology is pivotal for instigating positive change and ensuring high-quality care for individuals seeking psychological support.

#### **List of references:**

1. Aleksieienko-Lemovska L. (2022). Psychological features of development of professional reflexive of future psychologists. *International Science Journal of Education & Linguistics*, 1(3), 97–106. Retrieved from <https://isg-journal.com/isjel/article/view/42>
2. Brown, A. L. (1978). Knowing when, where, and how to remember: A problem of metacognition. In R. Glaser (Ed.), *Advances in instructional psychology* (Vol. 1, pp. 77–165). Erlbaum.
3. King, L. A., & Hicks, J. A. (2007). Lost and found possible selves, subjective well-being, and ego development in divorced women. *Journal of Personality*, 75(6), 1241–1270.
4. Schön, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.
5. Zeidner, M., Boekaerts, M., & Pintrich, P. R. (Eds.). (2000). *Handbook of self-regulation*. Academic Press.
6. Maftuna Shuxratovna Baqoyeva (2022). Chet tilini o'rganishda motivatsiya va munosabatning psixolingvistik asoslari. *Oriental Art and Culture*, 3 (4), 423-429. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=en&user=JhjFwXUAAAAJ&citation\\_for\\_view=JhjFwXUAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=JhjFwXUAAAAJ&citation_for_view=JhjFwXUAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)
7. Baqoyeva M. Sh. "Maktab o'quvchilari orasida bulling holatlarini o'rganish va uni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" *Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy metodik jurnal* 4-son (2023 ,may) 8-13 b.



**Avezov Olmos Ravshanovich**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori p.f.f.d (PhD), dotsent

**Dilova Gulchiroy Bahodirovna**

Osiyo xalqaro universiteti, 1-kurs magistranti

## IJTIMOIIY PSIXOLOGIIYADA OILA VA UNING TIPLARI MUAMMOSI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oila nikoh munosabatlari, yosh oila munosabatlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari ularning jahonda va O'zbekistonda o'rganilganlik darajalari, va masalalari yoritilgan. Yosh oila a'zolarining o'z muammolarini oqilona hal etishlari uchun bir qancha yechimlar bilan tavsiyalar berilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** oila, nikoh munosabatlari, yosh oila, oilaviy muhit, oilaviy muammolar, zo'riqishlar, tasavvur, ijtimoiy persepsiya, stress, oilaviy nizolar, jamiyat, oila maktablari, mahalla, davlat, ijtimoiy siyosat.

## ПРОБЛЕМА СЕМЬИ И ЕЁ ТИПЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ

**Аннотация.** В данной статье освещены социально-психологические проблемы, возникающие в семейно-брачных отношениях, молодых семейных отношениях, их причины и проблемы, возникающие в отношениях, их причины, уровень их изученности в мире и в Узбекистане, их проблемы. Важно, что изложены пути их решения и даны рекомендации.

**Ключевые слова:** семья, супружеские отношения, молодая семья, семейная среда, семейные проблемы, напряженность, воображение, социальное восприятие, стресс, семейные конфликты, общество, семейные школы, махалля, государство, социальная политика.

## THE PROBLEM OF THE FAMILY AND ITS TYPES IN SOCIAL PSYCHOLOGY

**Abstract.** This article highlights socio-psychological problems arising in family-marital relations, young family relations, their causes and problems arising in relations, their causes, the level of their study in the world and in Uzbekistan, their problems. Importantly, ways of solving them are outlined and recommendations are given.

**Key words:** family, marital relations, young family, family environment, family problems, tension, imagination, social perception, stress, family conflicts, society, family schools, mahalla, state, social policy.

**Kirish.** Bugungi kunning muhim dolzarb muammolaridan biri bo'lgan oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH. Mirziyoyev aytganlaridek - Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. Zero, yurtimizda ijtimoiy hayotni isloh qilish borasidagi barcha sa'y-harakatlar, eng avvalo, yoshlarda oila institutiga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish, to'g'ri falsafa asosida ma'naviy jihatdan sog'lom oilani barpo etishga ruhiy hozirlikni qaror topdirishdan iboratdir.

Mustahkam va baxtli oila qurishga yigit-qizlarni ilk yoshlikdan tayyorlash, oila muhitida hamda barcha ta'lim bo'g'inlarida bu ishlarni bosqichma-bosqich izchil davom ettirish olib borayotgan siyosatimizning naqadar istiqbolga qaratilganligini ko'rsatadi.

Maqsadimiz pok niyat, jismonan baquvvat, sog'lom, intellektual salohiyati yuksak, har tomonlama yetuk millatparvar yoshlarni voyaga yetkazish ekan, bu borada oila institutining

barcha imkoniyatlaridan to'la va o'rinli foydalanishni bilishimiz, bu yo'ldagi samarali mexanizmlarni ilmiy jihatdan tadqiq etishimiz lozim bo'ladi. Chunki yurtboshimiz takidlaganlaridek, Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. O'zbekistonda jadal rivojlanib borayotgan fan tarmog'i sifatida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda oila to'g'risida aniq tasavvurlarni shakllantirish yo'llarini o'rganar ekan, eng avvalo, oilaning qaysi modeli yoki tipi hozirgi zamon yoshlariga ma'qul ekanligi, bu tiplarning zamonaviylik hamda an'anaviylik qanchalik mos kelishiga hamda yigit va qizlarning bu boradagi ijtimoiy tasavvurlariga alohida e'tibor qaratadi.

Zero, nikohga ikki shaxs yigit va qiz kiradi. Ulardagi jinsga oid psixologik xususiyatlarning qanday ekanligini oila muhitida ro'y beruvchi psixologik hodisalarning yoshlar ongiga ta'sir ko'lamini bilgan holda, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash yo'llarini belgilash fan uchun ham, amaliyot uchun ham foydalidir. Zero, yoshlarda ijtimoiy psixologik tasavvurlar va ular asosida shakllanadigan ustanovkalarining o'zgarib borayotganligi hayot tarzi yoki ijtimoiy- iqtisodiy shart- sharoitlarning o'zgarib borayotganligi bilangina izohlanmaydi. O'zbekistondagi shahar va qishloqlarning infratuzilmasini oldindan rejalashtirish, muhim ijtimoiy islohotlarni belgilash mumkin bo'ladi. Chunki oilada ijtimoiy muammolarni yechimiga nisbatan fikrning qanday ekanligiga qarab uning bo'linmagan patriarxal tipi yoki nukliar tipi uchun o'ziga xos yashash sharoitlarini yaratish shunga mos ravishda uy binolar loyihalashtirish oilalarning mustahkam va ahil yashashi uchun zamin yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shuni alohida takidlash lozimki, O'zbekistonlik ko'plab olimlar o'zlarining doktorlik hamda nomzodlik bitiruv malakaviylarida o'quv qo'llanma va monografiyalarida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G.G'oziyev, Sh.R.Barotov, O. Shamsiyeva Z.M. Hasanova, va boshqalar. Shu bilan birgalikda hozirgi zamon psixologiyasida oila va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati masalasi ham ko'plab xorijlik hamda mahalliy tadqiqotchilarning izlanishlariga asos bo'lgan.

M.Argayl, M. Jeyms, A.A.Koronik, V.G. Krisko, K. Vitaker, L.B. Shneyder S.Kovalev va boshqalar. Chunki oila muammolarining ilmiy jihatdan o'rganilishi unga aloqador amaliy masalalarni to'g'ri va asosli hal qilish, joylarda tashkil etilayotgan psixologik yordam va xizmat shaxobchalarining ishlarini samarali tashkil etishning kafolatidir. Yuqoridagi adabiyotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak har bir muallif oila sohasida o'z qarshlari va fikrlarini izohlab o'tganlar. Bundan ko'rinadiki oila mavzusi barcha millat vakillarining diqqat va e'tiborlari markazidadir. Jahonda eng ko'p o'rganilayotgan masalalardan biri oila masalasidir. Chunki oila jamiyat hayotining eng katta ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Biz yosh avlodlar ham ushbu masalaga ijobiy yondashgan holda o'z fikr mulohazalarimizni keltirib o'tdik.

Oilani turlarga bo'lganda turli olimlar turlicha yondashadilar. Masalan Sank- Peterburglik olim S.I.Golog (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollarin nuqtai nazaridan oilani toifalarga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Xususan u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtai nazaridan farqlashni taklif etgan. Patriarxal monogam oila-bu o'z mohiyatiga ko'ra erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota onaga tobeligini nazarda tutadi. Bunday oilada o'g'il bolalar otaning oilasini sira tark etmaydi.

Oilaning nufuzi, obro'si otaning, erning, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi. Monogam oila bola manfaatiga yo'nalgan oila 19- asrning oxiri 20-asrning boshlarida paydo bo'lgan hodisadir. U xotin qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri avtoritar tipdir bunda bola soni bittami ikkitami ota -onaning cheksiz g'amxo'rliqi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi.[2]

Masalan ko'pgina amaldorlarning oilalari shunday ota- ona bola nazarida eng nufuzli, aqlli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasidek bo'lib, yetishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi. Amalga oshirilayotgan qator ishlar, oila psixologiyasining keng qamrovli tadqiqotlar ob'yektiga aylantirilganiga qaramay, O'zbekistonda yoshlarni oilaviy

hayotga tayyorlashda ulardagi oila tipi yoki modeli to'g'risidagi tasavvurlarga yetarli e'tibor qaratilmagan. Yigitlar odatda uylanish to'g'risida o'ylar ekan, bo'lg'usi oilaning faqat ota-onalar oilasida kattalar bilan birga yashashni taqozo etuvchi shaklda tasvur qilganla. Qizlar esa o'zlarining faqat bo'lg'usi turmush o'rtog'ining uyida, uning ota -onasi bilan yashashni, kelinlik burchini shu tarzda uzoq yillar davomida ado etishni tasavvur qilgan. Lekin hayot o'zgarib borayotganligi sari turmush tarzlari ham o'zgarib, shaxsiy hamda umuminsoniy qadriyatlar o'zgarib bormoqda.

Kuchli ichki va tashqi migratsiya, yil sayin bir necha xonadon bir hovlida yashash imkoniyatlari cheklangan bir sharoitda patriarxal oila tipidan nuklear oila tipiga o'tish, ota onasidan uzoqda boshqa shaharda, poytaxtda alohida yashab, hayot kechiradigan yosh oilalar tobora ortib bormoqda. Lekin an'anaviy ustanovkalardan chekinib, yangicha oilaviy hayot kechirishga yoshlarning psixologik hamda ijtimoiy psixologi jihatdan tayyorligi, ushbu jarayonlarga xos bo'lgan yangiliklar, muammolar, ularni yengishga yoshlarning hozirligi ijtimoiy psixologiya va oila psixologiyasi uchun o'ta muhim masaladir.

Shu o'rinda shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq hazratlarining fikrlarini keltirib o'tishni lozim deb topdim. Alloh taolo inson zotini juft qilib, erkak va ayoldan iborat qilib yaratganda ularning har biriga o'ziga xos xususiyatlarni berdi va ularning nikoh orqali halol-pok yashab, o'zlaridan zurriyotlar qoldirishlarini hamda ayni shu yo'l bilan dunyoning obod bo'lishini va odam sulolasini qiyomat qoim bo'lguncha halol-pok yo'l bilan davom etib borishini iroda etadi. Ammo ming afsuslar bo'lsinkim, keyingi paytlarda G'arbdagi ba'zi bir jamiyatlarda "hurriyat," "shaxs erkinligi" degan soxta shiorlarni ro'kach qilib olgan ayrim buzg'unchilar Oilaning keragi yoq, nikoh shart emas, u insonning erkini cheklab qo'yadi degan da'voni ko'tarib chiqishdi.

**Tahlil va natijalar.** Qadimiy buyuk imperiyalarning sharmandalarcha qulashining asosiy omillaridan biri ham shu bo'lgan. Butun dunyo, insoniyat oila muammosini hal qilish uchun turli choralarni ko'rmoqda.[3]

Zamonaviy psixologiyada oilaviy munosabatlarning turlari mavjud .

1. Ijtimoiy biologik .
2. Huquqiy
3. Iqtisodiy
4. Axloqiy
5. Pedagogik
6. Psixologik

Ota ona va bolaning munosabatlarining shakllanishi va dinamikasida ta'sir qiluvchi omillar mavjud: butun oila tizimi, uning faoliyati va rivojlanishining xususiyatlari, oila tizimining tarkibiy elementlari sifatida har bir oila a'zosining individual xususiyatlari; jamiyat, chunki oila bu katta ijtimoiy tizimning tarkibiy qismidir. R.Ovcharova barcha omillarni to'rt darajaga guruhlashni taklif qildi.

- 1) makro daraja yoki ijtimoiy ta'sir darajasi;
- 2) mezo- daraja yok iota ona oilasining darajasi;
- 3) mikro daraja yoki o'z oilasining darajasi;
- 4) individual daraja yoki barcha individual va shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lgan daraja.

Yuqorida sanab o'tgan oilaning omillari har bir davlat va jamiyatning qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda tadbiq qilinadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota – ona balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir -birini tushunib his qila oladigan darajadagi do'stona munosabatlarni o'rnatish olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo'gini hisoblanadi. Bu o'rinda ota -onaning o'rni beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg'aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota – onaning vazifasidir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak oilaning mustahkam va barqarorligini taminlashda oila a'zolarining birdamligi, ahlligi va bir -birlarini tushunib qo'llab quvvatlashlari farzandlarini birgalikda voyaga yetkazishlari jamiyat uchun sog'lom oila qurishlari lozimligini anglab



yetmoqliklari zarurdir. Ma'suliyat taqsimlanmagan oilalarda bolalar ko'pincha og'ir psixologik noqulaylikni boshidan kechirishadi. Ular ota-onalarini rozi qilishga harakat qilishadi, lekin buni qanday qilishni bilishmaydi, chunki ular oila ierarxiyasidagi o'z o'rnini tushunmaydilar. Bola hamma narsani to'g'ri bajarayotganini tushunish uchun ota-onasi tomonidan uning harakatlarini doimiy ravishda baholash, ularning yordami va etiboriga muhtoj. Agar ota-onalarning e'tiborlaridan qolayotganliklarini bilsalar bu noaniqlikning rivojlanishiga va o'z o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib keladi. Natijada bola ko'pincha oilaviy munosabatlardan tashqarida tushunishni topishga harakat qiladi, bu ko'pincha xafli bo'lishi mumkin. Har bir oilaning farzandlari ta'lim tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish lozim. Kelajak avlodning sog'lom muhiti, tinchligi bu jamiyatning yanada gullab yashnashi uchun katta zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vasila Karimova "Oila psixologiyasi", - 2008.
2. G'oziyev E. "Psixologiya" Toshkent O'qituvchi. - 1994.
3. Yosh va Pedagogik psixologiyadan praktikum.T. - 1991.
4. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
5. Avezov O.R. Psychologisal relations between family members. Sscientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022:5.947 February 2022 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). P-945-949
6. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reastions in Emergeny. and Extreme Emergenies Amerisan journal of sosial and humanitarian researsh. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/artisle/view/714>
7. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, «Durdona» nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.

Izomova Mehriniso Abdullayevna  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

## SHARQ MUTAFFAKKIRLARI QARASHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PERSEPSIYASINING PSIXOLOGIK JIHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam Ibn Toy, Alisher Navoiy kabi olimlarning shaxslararo munosabatlar persepsiyasi haqidagi fikrlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari, oila va oilaviy munosabatlar, shaxsning aqliy va axloqiy kamoloti, oila barqarorligi.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЦЕПСИИ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ ВО ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** В данной статье раскрываются мнения таких учёных, как Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али Ибн Сина, Юсуф Хос Хаджиб, Махмуд Кашгари, Кайковус, Хотам Ибн Тай, Алишер Навои, которые считаются великими учёными Востока, о восприятии межличностных отношений.

**Ключевые слова:** человеческие отношения, проблемы личности и её зрелости, семья и внутрисемейные отношения, психическая и нравственная зрелость личности, стабильность семьи.

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PERCEPTION OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

**Abstract.** This article reveals the opinions of scholars such as Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali Ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Mahmud Kashgari, Kaikovus, Hotam Ibn Tay, Alisher Navoi, who are considered to be great scholars of the East, about the perception of interpersonal relationships.

**Key words:** human relations, problems of the individual and his maturity, family and family relations, mental and moral maturity of the individual, family stability.

**Kirish.** Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi. Yuqorida keltirilgan bu fikrlar birinchi navbatda inson omilining eng ustuvor vazifasi ekanligini bildirsa, ikkinchidan esa, shaxsga bog'liq ravishda kechadigan munosabatlar axloq, odob, ma'rifat, ma'naviyat kabi qadriyatlar zamirida amalga oshishiga ishoratdir. Bu borada tasviriy san'at orqali shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta'sirini o'rganish muhim ekanligi yanada ko'rinadi.

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam Ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e'tibor berilgan, shuning uchun biz yuqoridagi buyuk mutafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlari yoritilgan

asarlarini tahlil etish orqali talabalarga mazkur muammolarni naqadar dolzarb ekanligini bayon etamiz.

**Asosiy qism.** Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berilgan. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar - halollik, poklik, mardlik, so'zomollik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlar barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga kishidagi insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar avvalo ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etishi kabi qimmatli fikrlarini bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-etik, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'on va hadislarida ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan.

Quyida hadislar to'plamidan bir necha misollar keltiramiz:

«Farzandlaringzni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz».

«Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi».

Keltirilgan namunalardan ko'rinadiki, demak, diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, ota-onalarning oila oldidagi burch va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.

Agar xalq eposi va diniy risolalar odamlarda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga ko'chib saqlanib kelgan bo'lsa, xalqning eng donishmandlari va olimlari o'z qimmatli fikrlarini xalq an'alariga tayangan holda o'z asarlarida yoritib, ularni kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar, shunday faylasuf-olimlardan biri Abu Nasr Forobiydir. Uning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o'git bo'lib, axloq nazariyasini boyitdi. Uning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-biriga samimiy munosabatlari, mehru-oqibatlari esa, ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi davr uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Forobiy qarashlari ta'sirida qator fanlar bobida o'z izini qoldirgan donishmanddir. Uning ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan. Mutafakkir o'zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalarini» nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U bunday yozadi: «Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir».

Axloq-odob egasi bo'lgan inson, eng avvalo, o'z yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlari olimning oila etikasi bo'yicha ibratli qarashlaridan namunadir. «Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Shunday qilib, Beruniy o'z ustozlari izidan borib, o'zining gumanistik umuminsoniy qarashlari bilan oila psixologiyasiga munosib hissasini qo'shdi. U insonlar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdi-ki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.



Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Mutafakkirning qalamiga mansub bo'lgan «Donishnoma», «Risolayi ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo'jaligi» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning «Tadbiri manzil» asarida alohida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritarkan, Ibn Sino, avvalombor, oila boshlig'i oldiga qator talablarni qo'yadi. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilariga, mahalla-ko'ygacha ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'imi, yoki oddiy fuqaromi, bari-bir, bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona, yollangan shaxs «nafaqat so'z bilan balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim».

Ibn Sinoning mehnat tarbiyasi borasidagi fikrlaridan biri, masalan, har bir bolani, deydi u, «Biror hunarga o'rgatmoq shart, yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotda tadbiriq eta olsa va mustaqil hayot tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'yimg'i lozim», - deb hisoblaydi. Demak, allomaning oila qurish uchun zarur ijtimoiy va iqtisodiy yetuklik haqidagi fikrlari biz uchun hozir ham zarurdir. Sababi, oilaning mustahkamligi va baxtli bo'lishi aynan oila qurganlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan yetukliklariga va ayniqsa, yigitning oila qurishiga tayyorgarligiga bog'liqdir.

Shunday qilib, Ibn Sinoning tabobat, inson tarbiyasi, oilaviy munosabatlar xususidagi fikrlari juda qimmatli bo'lib, ularni hozirgi zamon yoshlari ongiga yetkazish esa katta ilmiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» - «Saodatga eltuvchi bilim» - kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining etika va hayotga oid qarashlarini bayon etadi.

U inson faqat jamiyatdagina kamolatga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy – foydali mehnat uni rivojlanishi va yashashining mezonidir deb hisoblaydi. «Boshqa odamlarga foydasi tegmaydigan inson – o'likdir», - deb yozadi Yusuf Xos Hojib. Odam kim bo'lishidan qat'i nazar (shohmi, gadomi) avvalo, insoniy bo'lishi kerak, chunki «dunyoda o'lmas bo'lib, faqat insoniylik qoladi», «Yaxshi axloqiy fazilatlariga ega kishi – har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir».

Shoirning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham oilaviy tarbiyani Yusuf Xos Hojib, bola axloqiy taraqqiyotning asosi, deb hisoblagan: «Agar bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb – otasida». Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e'tibor bermog'i lozim. Ma'lumki, so'fizm insoniy muhabbat, sevgini inkor etib, faqat Ollohga nisbatan sevgi muhabbatnigina borligini e'tirof etgan. Bundan farqli o'laroq, Yusuf Xos Hojib, odamlar o'rtasidagi sevgi muhabbatni tarannum etgan. U sevgini oilaviy baxt va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning garovi, deb hisoblagan. «Yigit uylanmasdan avval kelinning kimligini, uning kelib chiqishi, xarakteri va xulq-atvorini bilishi kerak», - deydi u. Uning axloqiy didaktikasi O'rta Osiyodagi ilg'or fikrlarning taraqqiyotiga

katta hissa qo'shgan, shuning uchun ham uning qarashlari musulmon xalqlari o'rtasida keng tarqalgan va ko'pgina shov-shuvlarga sabab bo'lgan.

Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshda o'g'liga atab «Qobusnoma» yozib, unda o'zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Kitobdagi asosiy g'oya – yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, e'zozlashga chaqirishidir. Uning bu boradagi fikrlari pandnomaning «Ota-ona haqqini bilmoq zikrida» bobida bayon etilgan: «Gar bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay» u bu borada «Nima eksang, shuni o'rasan» degan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo'yilishi ana shu muhim maqol asosida qurilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaydi.

Fan va ilmu ma'rifat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr olimlari va ma'rifatparvarlari – Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz, Abdullo Avloniy kabilar esa, Sharq mutafakkirlaridan ruhlanib, axloq-odob, oila etikasi va psixologiyasiga oid qator asarlar yaratdilar.

Abdullo Avloniyning oila pedagogikasi va psixologik fikrlari ham diqqatga sazovordir. Uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilingan «Turkiy guliston yoxud axloq», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston va Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub-ul-qulub» asarlariga o'xshash janrda yozilgan bo'lib, muallif unda oilada bola tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib bergan. Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan, «Qush uyasida ko'rganini qiladur», – deydi. «Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar...». Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo'yadi: «...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga «birinchi uy tarbiyasi – bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, – degan javob bersak». Ko'rinib turibdiki, Abdullo Avloniy bolaning mukammal tarbiyasi nafaqat oilaga, balki maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog'liqligini e'tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

**Xulosa.** Yuqoridagi qisqacha tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, musulmon olami, Sharq mutafakkirlari orasida oila muammolari bilan shug'ullangan va shu xususda o'zlarining qimmatli fikrlarini kelgusi avlodlar uchun qoldirgan olimlar juda ko'p. Biz ularning ayrimlariga to'xtaldik, xolos.

Sharq mutafakkirlari ham o'z asarlarida bolaning rivojlanishida oilaning ahamiyatiga katta e'tibor bilan qaraganlar va bu borada shaxslararo munosabatlar ustivor bo'lib hisoblangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аракелов.Н.Е., Лысенко.Е.Е. Локус контроля и методы его исследования // Психологический журнал, 2007. - Т. 4. - №2 - С. 34 - 38.
2. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика СПб., 2003.
3. Брушлинский А.В. Проблема субъекта в психологической науке // Психологический журнал. 2001. № 6.
4. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda stressbardoshlik tushunchasi. International Conference on Developments in Education. Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> 22nd Feb. 2023. B. 63-67
5. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, «Durдона» nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
6. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, «Buxoro viloyati bosmaxonasi» nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.

**Xoliqova Dildora Nayimovna**  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

### **TA'LIM MUHITI YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI KASB TANLASHGA TAYYORLASH PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini fanlar bo'yicha tegishli faoliyat sohalaridagi ish mazmuni bilan tanishtirish orqali kasb tanlash motivlarini rivojlantirishni ta'minlash, o'rta maktab o'quvchilarida kasblar uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish, hamda ta'lim muhiti yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashga tayyorlash omiliga doir mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kasb tanlash motivlari, ko'nikmalarni shakllantirish, kasb tanlashga tayyorlash, ta'lim muhiti va shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy-ta'lim muhitining imkoniyatlari.

### **ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ПОДГОТОВКИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ К ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ**

**Аннотация.** В этой статье, путем введения школьников в содержание работы в соответствующих сферах деятельности, обеспечивая развитие мотивов выбора профессии, формирование навыков, важных для профессий в школе, студентов и образовательной среды высокая соображения на фактор подготовки учащихся к выбору профессии.

**Ключевые слова:** мотивы выбора профессии, формирование умений и навыков, подготовка к выбору профессии, образовательная среда и возможности для личностного развития, социально-образовательная среда.

### **EDUCATIONAL ENVIRONMENT AS A PSYCHOLOGICAL FACTOR IN PREPARING UPPER-CLASS STUDENTS FOR THE CHOICE OF PROFESSION**

**Abstract.** In this article, by introducing school students to the content of work in the relevant fields of activity, ensuring the development of motives for choosing a profession, the formation of skills important for professions in high school students, and the educational environment is high Considerations are made on the factor of preparing students for choosing a profession.

**Key words:** motives for choosing a profession, the formation of skills, preparation for choosing a profession, educational environment and opportunities for personal development, socio-educational environment.

**Kirish.** "Ta'lim muhiti" atamasi fan nazariyasi va amaliyoti uchun nisbatan yangi tushunchadir. Bu boradagi mulohazalar 20-asrda nutq muomalasiga kirgan va u qonunlar, monografiyalar va dissertatsiyalar nomlari, pedagogik anjumanlarda sekin-asta o'rin ola boshladi. Ta'lim muhiti bo'lgan hodisani muhokama qilish jarayonida mutaxassislar uni faqat ijtimoiy institut va dasturlarni ishlab chiqish bilan bog'lash mumkin emas degan xulosaga kelishdi. Chunki "zamonaviy jamiyatning ta'lim" muhitida ta'limning asosiy maqsadiga erishiladi - o'z-o'zini bilish qobiliyatlari rivojlantiriladi hamda yaxlit dunyoqarash tizimini shakllantiriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yu.N. Kulyutkin va S.V. Tarasovlar tomonidan yozilgan "Ta'lim muhiti va shaxsiy rivojlanish" kitobida ta'kidlashicha, ta'lim muhiti "ijtimoiy, madaniy, shuningdek, maxsus tashkil etilgan psixologik-pedagogik sharoitlar yig'indisi bo'lib, ularning o'zaro ta'siri natijasida shaxsning shakllanishi sodir bo'ladi". Kitob mualliflari ta'lim muhitining bir necha turlarini ajratib ko'rsatadilar, ular uchun quyidagi sabablarni taklif qiladilar:

a) atrof-muhit ichidagi o'zaro ta'sir uslubi (gumanistik - texnokratik, kooperativ - raqobat);

b) ijtimoiy tajribaga munosabatlarning tabiati va uning qayta uzatilishi (universal - milliy, innovatsion - an'anaviy);

v) ijodiy faoliyat darajasi (tartibga solinadigan - ijodiy);

d) tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qilish xarakteri (yopiq - yopiq).

Tadqiqotchi L.I. Gutsulyak Maktabning pedagogik jarayonidagi ijtimoiy-ta'lim muhitining imkoniyatlarini tavsiflagan, zamonaviy ta'lim tashkilotining shartlari o'smirlarga o'z faoliyatidan, kuzatishlar va idroklardan bilim olishga, o'z harakatlarining tamoyillarini tushunishga yordam beradi, deb yozadi.

L.I. Gutsulyak, ta'lim muhitining psixologik tarkibiy qismini muhim rol o'ynaydi deb hisoblaydi va ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi muloqotning tabiati sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, "Ushbu komponent o'z-o'zini hurmat qilishning saqlanishi va takomillashtirilishini ta'minlash, ijobiy fikrlashni shakllantirishda asosiy yukni o'z zimmasiga oladi. "Men-kontseptsiya"si esa, boshqalar tomonidan tan olinishi, shaxsning o'ziga va boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lishiga sababchi hisoblanadi.

Maktabning ta'lim muhiti o'rta maktab o'quvchilari uchun nafaqat ma'lum bir kasbni ongli ravishda tanlash, balki yaqin va uzoq kelajak rejalarini belgilash imkonini beradigan qulay asosga aylanishi kerak.

Bu borada psixologlar va o'qituvchilarning vazifasi o'quvchilarga kasb olamida harakat qilishda, o'z ehtiyojlari va tanlagan sohada o'zini o'zi anglash uchun potentsial imkoniyatlarni tushunishga yordam berishdir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda o'rta maktab o'quvchilarining kasb tanlash motivlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni sub'ektlari bo'yicha quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalarni aytib o'tamiz.

Fan o'qituvchilari uchun tavsiyalar:

O'quvchilar maktabda o'tkazadigan vaqtning ko'p qismi faqat ta'lim faoliyati bilan band bo'lganligi sababli, kasb tanlash motivlarini fanga yo'naltirish orqali rivojlantirish mantiqiy bo'ladi. Maktab fanlarini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarini mehnatga tayyorlash vazifalariga erishish, ularni zamonaviy iqtisodiyot asoslari (sanoat, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohasi) bilan tanishtirish, mehnatni rivojlantirish ko'nikmalarni shakllantirish va umuman olganda, kasbni ongli ravishda tanlashni rag'batlantirish.

Har bir o'quv predmeti o'ziga xos tarzda kasb tanlash motivlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. Shunday qilib, tabiatshunoslik fanlari (biologiya, kimyo, fizika, matematika) o'quvchilarni mamlakat va hududning iqtisodiyot tarmoqlaridagi yetakchi kasblar bo'yicha ish mazmuni bilan tanishtiradi hamda ushbu kasblarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Gumanitar fanlar tsiklining sub'ektlari (tillar, adabiyot, tarix, jamiyat, MHK) shaxsning mafkuraviy asoslarini shakllantirishga ta'sir qiladi, uning rivojlanish jarayonini faollashtiradi va o'z taqdirini o'zi belgilashning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy omillarining ta'sirini kuchaytiradi.

Shuni hisobga olgan holda fan o'qituvchilari:

- umumta'lim maktablari o'quvchilarini konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, ishbilarmonlik o'yinlari, loyiha faoliyati, fan haftaliklari, olimpiadalar, tanlovlar, devoriy gazetalar yaratish, uy insholari yozish va hokazolarda ishtirok etishga jalb qilish orqali ularning bilimga qiziqishini rivojlantirish;

- maktab o'quvchilarini fanlar bo'yicha tegishli faoliyat sohasidagi ish mazmuni bilan tanishtirish orqali kasb tanlash motivlarini rivojlantirishni ta'minlash;

- o'rta maktab o'quvchilarida kasblar uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish;

- o'rta maktab o'quvchilarida ma'lum bir ish sohasida o'zlarining cheklovlari va afzalliklarini tushunish uchun zarur bo'lgan munosib o'zini-o'zi hurmatni shakllantirishga hissa qo'shish;



- dastur materialidagi mavzularni ajratib ko'rsatish, ularning taqdimotida o'rta maktab o'quvchilarini muayyan ish sohalari bilan tanishtirishga mo'ljallangan materialni kiritish tavsiya etiladi;

- muayyan mavzu mazmuniga mos keladigan materialni taqdim etishning eng samarali shakllarini aniqlash;

- mintaqangizdagi kasblarga alohida e'tibor qaratgan holda, iqtisod yo'nalishlari va ushbu fan bo'yicha dasturiy material bilan bog'liq asosiy kasblarni tavsiflovchi adabiyotlarni o'rganish;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan kognitiv qiziqishlarini aniqlash maqsadida kuzatishni tashkil etish;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarining o'rganilayotgan fanga va turdosh kasblarga bo'lgan moyilligi va qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ular bilan yakka tartibdagi ishlarni amalga oshirish;

- fanga qiziqish bildirgan maktab o'quvchilari, shuningdek sinf o'qituvchilari va ota-onalari bilan birgalikda har bir o'rta maktab o'quvchisiga individual ta'lim traektoriyasi (ITT) bo'ylab oldinga siljish imkonini beradigan individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

- kabinetdagi stendlarda ushbu fanni o'rganish bilan bog'liq kasblar bo'yicha ko'rgazmali materiallarni yangilash;

- o'rta maktab o'quvchilarida o'z fanlari bo'yicha kasb tanlash motivlarini rivojlantirish bo'yicha o'z bilimlaringizni chuqurlashtirish.

Dars o'quvchilarning bilim faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lganligi sababli, kasb tanlash motivlarini rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga asoslangan bo'lishi kerak:

- kasblarning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va psixologik tomonlarini ochib berish;

- ma'lum bir iqtisodiy mintaqada shoshilinch ehtiyoj mavjud bo'lgan aniq kasblarga ijobiy munosabatni shakllantirish;

- o'z imkoniyatlari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini anglash asosida kasbiy manfaatlar va to'g'ri asoslangan professional niyatlarni rivojlantirish.

Dastur mazmunini o'rganishga qaratilgan ish shakllari va usullarini tanlashda fan o'qituvchilari o'rganilayotgan materialga tegishli kasblar haqida suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiqdir; o'quvchilarni amaliy mazmunga ega bo'lgan turli xil muammolarni hal qilishga taklif qilish; muayyan kasbiy sohada mavzuni o'rganish natijasida olingan bilimlarni qo'llashni ko'rsatadigan filmlar va teleko'rsatuvlar fragmentlarini ko'rishni tashkil etish; korxonalar yoki tashkilotlarda ishlaydigan mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish; mavzuli kechalar, og'zaki jurnallar o'tkazish; maktab o'quvchilarini stendlar va plakatlar dizayniga jalb qilish.

Sinf rahbarlari uchun tavsiyalar:

Sinf rahbarini o'z vazifalari xususiyatiga ko'ra koordinator bo'lgan mutaxassis deb atash mumkin. Bu haqiqat, chunki u fan o'qituvchilari va o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida, fan o'qituvchilari va psixolog o'rtasida, o'quvchilar va maktab ma'muriyati o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Yaxshi sinf o'qituvchisi nafaqat o'z o'quvchilarining qanday yashashi haqida aniq tasavvurga ega, balki o'z nazorati ostidagi har bir o'quvchining o'sish nuqtalarini ham biladi.

Bu unga sinfni yuqori bosqichga o'tish bosqichida yordam beradi: o'quvchilar uchun kasb tanlash sabablarini bilgan holda, o'qituvchi kasbiy o'zini o'zi belgilashning har qanday bosqichida samarali yordam ko'rsatishga qodir. Xo'sh, sinf rahbari o'rta maktab o'quvchilarida kasb tanlash motivlarini shakllantirish uchun nima qilishi kerak? Ta'lim dasturining mazmuni va maktabning o'quv-tarbiyaviy ish rejasidan kelib chiqib, u:

- sinfingiz uchun o'quvchilarning o'zini o'zi belgilashini pedagogik qo'llab-quvvatlash rejasini tuzing, shu jumladan maktab o'quvchilarining bilim va ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan turli shakllar, usullar va vositalar;

- kasb tanlash bo'yicha yakka va guruhli suhbatlar, butun sinf bilan bahs va konferensiyalar tashkil etish;

• o'quvchilarning moyilligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beruvchi pedagogik kuzatishlar o'tkazish;

• har bir o'quvchiga individual ta'lim traektoriyasini (fan o'qituvchilari va ota-onalari bilan birgalikda), ixtisoslashtirilgan ta'lim va malaka oshirishning namunaviy variantlarini ishlab chiqishda yordam berish, o'quvchilar yutuqlarini tahlil qilish;

• kasb-hunar ta'limi tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan an'anaviy tadbirlarda (masalan, ochiq eshiklar kunida) umumta'lim maktablari o'quvchilarining ishtirokini tashkil etish;

Insonlarni manipulyatsiya ta'siridan himoya qilish ijtimoiy va psixologik xususiyatlarning uyg'unligini talab qiladi. O'z-o'zini anglash, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, hissiy intellekt, qat'iyatlilik, kuchli qo'llab-quvvatlash tizimi, vakolat va o'ziga ishonch, manipulyatsiya taktikasini bilish, sog'lom skeptitsizm, chidamlilik va qat'iyatlilik va axloqiy qadriyatlar bu himoyaga yordam beradi. Insonlarda bu xususiyatlarni tarbiyalash orqali biz ularga manipulyatsiyaga qarshi turish va o'z qadriyatlari va e'tiqodlariga mos keladigan ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berishimiz mumkin.

Psixologiyada manipulyatsiya boshqasiga ta'sir qilish yoki boshqarish uchun mo'ljallangan, odatda shaxsiy maqsadlarni osonlashtiradigan tarzda hiyla deb ta'riflanadi. Amaldagi usullar suhbatdoshning voqelikni idrok etishini buzadi yoki yo'naltiradi, xususan vasvasa, taklif, ishontirish va ixtiyoriy bo'lmagan yoki konsensual bo'ysunish orqali [1].

Talabalar oliy ta'lim muassasiga kirgan yillarida yangi hayot va muhitni qarshi oladilar. Talaba shaxsining birinchi yilida yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayoni bo'ladi. Buning natijasida psixologik va fiziologik darajada haddan tashqari kuchlanish, stress paydo bo'ladi. Natijada faollik pasayadi. Talaba nafaqat yangi xulq-atvor va o'rganish usullarini rivojlantirmaydi, lekin odatdagilarni bajarish ham qiyin. Manipulyatsiya ko'pincha muammolarni hal qilish usuli sifatida paydo bo'ladi. Talabalarda ziddiyatlardan qochish va stressni kamaytirishga bo'ladi. Manipulyatsiya muammosi har doim dolzarbdir, chunki odamlar o'rtasidagi munosabatlar sohasida sodir bo'ladi.

Muvaffaqiyatli insonlar har doim martaba uchun siz g'alaba qozonishingiz kerak deya o'ylashadi. Siz boshliqlar, xodimlar va talabalar ta'lim olish uchun siz bunday odamlar bilan qanday muloqot qilishni o'rganishingiz kerak. Manipulyatsiya metaforasi sehgarning (qo'g'irchoqboz) qo'llarining ishi bilan bog'liq, zamonaviy ma'noda ruhiy ta'sirning yashirin turi, kayfiyatni dasturlash va hatto bunday istalgan xatti-harakatni ta'minlash uchun boshqa odamning ruhiy holatini boshqara olish qobilyati. Manipulyatsiya nazoratga juda o'xshaydi. Farqi shundaki, boshqaruv boshqariladiganlar uchun ochiqdir va manipulyatsiya har doim yashirin bo'ladi. Agar manipulyatsiya ochiq va sezilarli bo'lib qolsa nima bo'ladi? Masalan, o'qituvchi, tugallanmagan topshiriq uchun yomon baho bilan tahdid qilib, talabani topshiriqlarni bajarishga undaydi - buboshqaruv bo'ladi. Talaba, ba'zi holatlar tufayli o'qituvchining rahm-shafqatiga bostirib, qutuladi vazifani bajarish manipulyatsiyadir. Shuni ta'kidlash kerakki, biz reaksiyani qanchalik aniq bilsak, shunchalik yaxshi bo'lamiz. Manipulyator ob'ektda yangi reaksiya yaratmaydi, u allaqachon shakllangan reaksiyani keltirib chiqaradi. Manipulyator himoya vositasini olib tashlash uchun suhbatdoshini hissiy jihatdan "silkitadi" va o'z ta'sirini o'rnatadi. Hissiy qo'zg'alishlar paytida his-tuyg'ular ongning nazorati ostidan tashqariga chiqadi, bu vaqtda odampsixologik ta'sirga ayniqsa zaif, bu manipulyatorning afzalliklaridan foydalanadi.

Manipulyatsiya ob'ektlari ko'pincha asab tizimi zaif, tashvishli, bo'ysunishga moyil, noaniq axloqiy tamoyillarga ega, o'zini past baholaydi. Bunga misol bo'lardi: yaxshi axloqiy tarbiya bo'lib xizmat qiladi: odam, hatto manipulyatsiya ta'sirida ham, "taqiqlangan" harakat qilmaydi.

O'zini yuqori baholaydigan takabbur odamlar manipulyatorga aylanish ehtimoli ko'proq, chunki ular o'zlarini boshqalardan yaxshiroq deb o'ylashadi va ko'p narsaga qodir. Past darajadagi odamlar tez-tez haydashadi, shuning uchun tez-tezpsixologik ta'sir ob'ektiga aylanadi. Yetarli darajada o'zini -o'zi hurmat qiladigan odamlar manipulyatsiya ta'siriga kam tushishashadi, chunki ular bunga muhtoj emas. Yosh va shaxsiyat rivojlanishi bilan o'z-o'zini hurmat qilish kuchayadi, "ko'tarilib boradi". Inson o'z fikrini himoya qilish qobiliyatiga ega

bo'ladi. O'qituvchilar, intizom va o'z vakolatlarini saqlab qolish uchun ham tez-tez manipulatsiyaga murojaat qilishadi. Ular "Sevimli tizim", "Baholar bilan jazo", "Do'stingiz" va boshqalar kabi usullardan foydalanishdi.

Boshqalar talabalar orasida keng tarqalgan texnikalar: "Qarga va tulki", "Senga qara", "Rahm qiling", "Eng aqli". Bundan tashqari, talabalar ko'pincha bir-birini manipulyatsiya qilish odamlarning manipulyatsiyasiga qiymat va semantika prizmasi orqali ham qarash mumkin. O'ziga, boshqalarga va butun dunyoga bo'lgan munosabatni belgilovchi aloqa predmeti sohasi sifatida qarash mumkin. Shu nuqtai nazardan, biz manipulyativ harakatlar haqida gapirishimiz mumkin, maqsadli, ongli (yoki qisman ongli). Shaxsning rivojlanishi bilan shakllanadi. Masalan: faoliyat tashqi omillardan ancha "avtonom" bo'lib, amalga oshiriladiqoida tariqasida, qat'i nazar, aloqa vaziyat, sherigi, va hokazo manipulyator oddiygina emas boshqalardan o'z maqsadlari uchun foydalana olmaydi, chunki manipulyatsiya bo'ladi. Uning uchun hayot normasi va insoniy munosabatlar qiymat ko'rsatkichi belgilangan bo'ladi

Shaxsning muloqotga bo'lgan munosabati va aloqa sherigi kommunikativ manipulyativ yo'nalish bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, odamlarning bir-birini tushunishi murakkab rivojlanish tarixiga ega bo'lgan ijtimoiy psixologiyaning eng qiyin va rivojlanmagan muammolaridan biridir. Insonlar tarixda mavjudki, bir-birlari ustidan hukmronlik qilish va boshqarish istaglari oshib kelavergan. O'zaro tushunish muammosiga turli yondashuvlar haqida batafsil to'xtalib o'tish mumkin. Insonlarda bir-birlari o'zaro tushunishdan ko'ra boshqaruv istagigi yotadi. Biz o'zaro tushunishni yaxlit va noyob jarayon deb bilishimizni ta'kidlaymiz. Bu ongli xarakterga urg'u beradigan o'zini anglashdan boshlanadi. Insoniy muloqot, inson o'zini, o'z maqsadlarini, motivlarini qanchalik yaxshi tushunsa, boshqa odamga munosabat, u bilan o'zaro tushunishga erishish osonroq. Biroq o'zaro tushunish bu bilan cheklanmaydi. Muloqotda aniq manipulyativ yo'nalish bilan yondashish talab qilinadi.

Manipulyativlikning turli ko'rsatkichlari manipulyatsiyaning turli jihatlari yoki ifodalariga qaratilgan bir qancha ko'rinishlari mavjuddir va uning bashorat qiluvchilarining bir oz boshqacha moyilliklarini ko'rishimiz mumkin. Kam empatiya, yuqori narsisizm, o'z-o'ziga xizmat qiladigan ratsionalizatsiyadan foydalanish va yuqori vakolatlilik (hukmronlik) va past muloqot (ya'ni, sovuqqonlik) bilan ajralib turadigan shaxslararo munosabat kabi xususiyatlar barcha chora-tadbirlarga mos keladi. Manipulyatsiya uchun motivatsiya o'z-o'ziga xizmat qilish yoki boshqalarga yordam berish yoki foyda keltirish bo'lishi mumkin. Anti-ijtimoiy manipulyatsiya — bu „boshqalarning hisobidan o'zining shaxsiy maqsadlari yoki manfaatlariga yetishish uchun foydalanish ko'nikmalarini ishlatishdir“, ijtimoiy xulq-atvor esa „boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga yordam berish yoki foyda keltirish uchun mo'ljallangan ixtiyoriy harakat“.

Talabalarda mavjud bo'lgan manipulyativ xatti-harakatlar odatda quyidagi zaifliklardan foydalanadi:

Psixologik bilim haqiqatan ham odamlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Misol uchun, agar siz semiz odamlar odatda yaxshi xulqli va ovqatlanishni yaxshi ko'rishlarini bilsangiz, bunday odamni qulay munosabatda bo'lish uchun sozlashingiz kerak bo'lsa, buni hisobga olish mantiqan. Yoki aksincha - agar kerak bo'lsa, uni yomon kayfiyatga olib kelish. Yana bir misol. Agar, masalan, Karl Yungning pozitsiyasini egallash uchun erkakning ruhi va uning biologik jinsi mos kelmasa, bu erkaklar ustidan qanday hukmronlik qilishi aniq bo'ladi. Bu erkaklikni shubha ostiga qo'yish uchun to'g'ri vaqtda kifoya - va boshqaruv va yana o'zlarining erkakligini isbotlashga shoshilishadi. Qisqasi, psixologiya bo'yicha deyarli har qanday kitob, agar hozirgi holatda bo'lsa, odamlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Ko'pgina manipulyatorlar - faqat o'z-o'zini o'rgatganligi sababli, kitoblardagi shubhasiz foydalari manipulyatorlarning mahoratini oshirishga yordam beradi. Gap manipulyatsiya qilinganmi yoki yo'qligida emas - hamma odamlar buni muntazam ravishda qilishadi. Qurbonlar tomonidan shubha tug'dirmasdan, muloyimlik bilan manipulyatsiya qilishni o'rganish juda muhim - nima uchun siz o'tirgan novdani kesishingiz kerak. Deyarli barcha akademik psixologiya pul-



pulyativnyh asoslarga asoslangan. Inson u sub'ekt sifatida, ko'pincha ob'ekt sifatida - idrok, ma'lumot, fikr-mulohaza, ta'lim, ta'lim va boshqalar sifatida tasavvur qilinadi.

Manipulyatsiyadan himoyalaniish zarurati kamaygan muhitni yaratish muammosi ham xuddi shunday muhim. Bu muammo psixologik xizmatlar qayerda paydo bo'ladi. Ma'lumki, har qanday psixologik xizmat to'laqonli shaklga aylansa, odamlarni to'liq qamrab olish, o'zi yaratilgan ta'sir ko'rsatish yo'lida rivojlanadi.


**Tahlil va natijalar.**

Talabalarni manipulyatsion ta'sirlarga qarshi immunitet shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan metodlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib uch holat, ya'ni, yosh, jins, hudud kesimida tahlil qilishga ham urinib ko'rdik.

	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	T	Ishonch daraja-si
regressiya	qizlar	125	6,5633	2,29454	3,61	,005
	o'g'il bolalar	115	6,0235	2,42114		

Talabalarda mavjud bo'lgan manipulyativ xatti-harakatlar odatda quyidagi zaifliklardan foydalanadi:

ZAIFLIKLAR	TASNIFI
Soddalik yoki g'o'rlik	Ba'zi odamlar ayyor, makkor, shafqatsiz bo'lishi mumkinligini qabul qilishi qiyin bo'lgan yoki ulardan foydalanganlarida buni, „tan olmaydigan“ odamlar [2.3].
Ortiqcha rozilik berish	Boshqalarning aybsiz ekanligiga ishonishga va ularni o'rniga o'zini qo'yib ko'rishga hayrixoh bo'lgan odamlar.
O'ziga past baho berish	O'ziga shubha bilan qarashdan, o'ziga bo'lgan ishonch va qat'iyatning yetishmasligidan qiynaladigan va o'z-o'zini himoya qilishga juda oson o'tadigan odamlar [2]
Ortiqcha intellektualizatsiyalash	Manipulyatsiya qiladiganlarni o'ziga yarasha sabablari bor deb ishonuvchi va ularni tushunishga urinuvchi odamlar [2]
Hissiy qaramlik	Bo'ysunuvchanlik yoki tobelik shaxsiyatiga ega bo'lgan odamlar. Odam qanchalik ko'p hissiy jihatdan qaram bo'lsa, u shunchalik oson ekspluatatsiya va manipulyatsiya qilish mumkin [2]



1-rasm. Regressiya psixologik himoya mexanizmi namoyon etilishining gender tafovutlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Biz tadqiqot davomida o'g'il bolalar va qizlarning psixologik himoya mexanizmlarida tafovutlar mavjudmi yoki yo'q degan holatlarga quyidagicha javob oldik. Regressiya psixologik himoya mexanizmi bo'yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatdik ( $t=3,61$ ;  $p>0,005$ ). Regressiya psixologik himoya mexanizmiga moyillik o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ekan. Psixologik himoya mexanizmida regressiya holatlari moslashish holatlarini ongsiz holatda idrok qilinishi bilan bog'liqdir. Qizlarda emotsional holatlar regressiv xarakterga egaligini ko'rsatdi. Qizlarda emotsional holatlarni o'zlariga olish va emotsional holatlardan foydalanish yuqoriligi qayd qilindi, ular ma'lum bir muammoga duch kelib qolsalar regressiya darajasini oshishi bilan chiqib ketar ekanlar, masalan yosh bolalarga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon qilishi bilan. O'g'il bolalarda esa bu holatlar qizlarga nisbatan past, ya'ni ular regressiyaga murojaat qilmasligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, texnologiya (yoki hunarmandchilik) san'atdan ko'ra osonroqdir. Shuning uchun, manipulyatsiya muammosini sinchkovlik bilan ko'rib chiqish, menimcha, manipulyatorlarga emas, balki manipulyatorlar qurbonlariga ko'proq foyda keltiradi. Bilimlarni shakllantirishning aks ettirish usullari, ularni o'zgartirish vositalari va ulardan foydalanish usullari har qanday bilim sohasidagi tadqiqotchilarning uslubiy masalalari mavzusidir. Psixologiya metodologik muammolarga ayniqsa sezgir. Bu xususiyatni tushuntirning uning tabiiy yoki insoniy maqomidagi ikki tomonlama pozitsiyasi bo'lishi mumkin. Aftidan, gumanitar psixologiya yoki fanga murojaat qilish to'g'risidagi munozaralar hali tugamaganga o'xshaydi. Yagona qaror qabul qilish uchun asoslar va boshqasi mumkin, har qanday uzoq muddatli nizoda bo'lgani kabi. Ko'rinib turibdiki, tez-tez bo'lgani kabi, nizo har xil asoslar asosida olib boriladi, lekin hali ham asoslar haqida xabardor emas. Psixologlar bizning fanimiz qoidalarini kuchga kirganlarida, o'zlarining mantiqiylikni aniqlashda juda ko'p qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar mavzusi odamlar o'rtasidagi aloqa, asosiy cho'qqi yoki shaxs ichidagi jarayonlar bo'lsa, muammo ayniqsa keskinlashadi [4].

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, talaba-yoshlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari talabalarni manipulyatsiyadan himoya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlangan talabalar axborotni xolisona tahlil qila oladilar va uning ishonchliligini baholaydilar. Ular ishonarli xabarlarining sabablarini so'roq qiladilar va taqdim etilgan dalillarni baholaydilar, bu manipulyatorlarga o'z fikrlarini o'zgartirishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari hissiy intellekt yana bir muhim xususiyatdir. Yuqori hissiy intellektga ega bo'lgan talabalar o'zlarining his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyatiga ega. Bu ularning zaifliklaridan foydalanadigan hissiy manipulyatsiya taktikasiga qarshi turishga imkon beradi. Talabalar o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ulari bilan uyg'un bo'lish orqali o'zlarini manipulyatsiyadan yaxshiroq himoya qilishlarini asoslandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. APA Dictionary of Psychology. Washington, DC: American Psychological Association. n.d. Retrieved 10 October 2021
2. Simon, George K. In *Sheep's Clothing: Understanding and Dealing with Manipulative People*, 1996. ISBN 978-1-935166-30-6.
3. Kantor, Martin. *The Psychopathology of Everyday Life: How Antisocial Personality Disorder Affects All of Us*, 2006. ISBN 978-0-275-98798-5.
4. Dotsenko EL Psychology manipulation: phenomena, mechanisms and zaschita.- M.: CheRo, Publisher State University, 1997 - 344 p. ISBN 5-88711-038
5. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. // Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).

Otaboyev No'monjon G'anijon o'g'li  
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

## AHOLINING IQTISODIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muammolari va istiqbollari hamda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishda turizm industriyasining o'рни haqida so'z boradi. Bundan tashqari moliyaviy savodxonlik tushunchasining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi va turli xil talqini yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** demografik jarayonlar, o'rtacha yosh, mehnat resurslari, xorijiy investitsiya, uy xo'jaliklari, moliyaviy savodxonlik, turmush tarsi, moliyaviy ko'nikma.

## ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы и перспективы повышения экономической грамотности населения, а также роль индустрии туризма в повышении конкурентоспособности экономики страны и модернизации отраслей экономики. Кроме того, в научной литературе освещены содержание и различные толкования понятия финансовой грамотности.

**Ключевые слова:** демографические процессы, средний возраст, трудовые ресурсы, иностранные инвестиции, домохозяйства, финансовая грамотность, жизненные цели, финансовые навыки.

## PROBLEMS AND PROSPECTS FOR INCREASING THE ECONOMIC LITERACY OF THE POPULATION

**Abstract.** This article will talk about the problems and prospects of increasing the economic literacy of the population and the role of the tourism industry in improving the competitiveness of the country's economy and modernizing the sectors of the economy. In addition, the coverage and various interpretations of the concept of financial literacy in the scientific literature are highlighted.

**Key words:** demographic processes, average age, labor resources, foreign investment, households, financial literacy, married life, financial skills.

**Kirish.** Insonning dunyoqarashi va iqtisodiy savodxonligi bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Iqtisodiy savodxonlik insonning dunyoqarashini shakllanishi varivojlanishiga, xuddi shu kabi, qaror topgan mustaqil dunyoqarash iqtisodiy savodxonlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Moliyaviy savodxonlik deganda esa, fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o'zini va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisidir. Hozirgi rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida har bitta soha vakillaridan iqtisodiy bilim va ko'nikmalar va moliyaviy savodxonlik darajasining yuqoriligi talab qilinadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishda turizm industriyasining o'рни kattadir, shu jumladan kapital bozori imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni hamda ushbu tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Shu maqsadda, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini

rivojlantirish 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida asosiy vazifalardan biri etib belgilangan edi.

Ma'lumki, har bir mamlakatda mavjud mehnat bozori nafaqat milliy, balki boshqa mamlakatlar iqtisodiyotining turli tarmoqlarini mehnat resurslari bilan ta'minlaydigan alohida mexanizmdir. Ushbu bozorda ishtirok etuvchilar, ayniqsa, ishchi kuchlarining professional sifatlari, moslashuvchanligi hamda yuqori sifatga egaligi muhim o'rin tutadi, chunki bu bevosita mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omildir. Unda talab va taklif o'rtasida o'ziga xos qonun mavjud bo'lib, iqtisodiyotning qay tartibda rivojlanishi yoki o'zgarishi bozor ishtirokchilarining dastavval sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. O'zbekiston mehnat bozori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda nisbatan demografik "yosh" aholi mavjudligi, tug'ilishlar soni va sur'ati ortib borayotgan va o'lim sur'ati kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan aholiga egaligi sababli mehnat bozorida taklif miqdori talabga nisbatan yuqoriligicha qolayotgani bilan tavsiflanadi. Har yili demografik siljishlar tufayli mehnat bozoriga 500 mingdan ortiq yangi mehnat resurslari kirib keladi. Aholining pensiya yoshiga yetishi, migratsiya, o'lim va boshqa omillar sababli mehnat resurslari safidan chiqayotganlarga nisbatan deyarli ikki baravar katta bo'lgan yuqoridagi raqamlar mamlakat iqtisodiyotiga ham bosimni vujudga keltiradi. Shu o'rinda hozirgi mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh guruhlari 2000-yillar boshlarida tug'ilganligini, bu davr esa mustaqillik yillarida tug'ilganlar sonining nisbatan eng past darajaga (yiliga 500-550 ming atrofida) ega bo'lgan davr ekanligi bilan ajralib turadi. Taqqoslash uchun: oxirgi 2-3 yilda yiliga 700 mingdan ortiq tug'ilishlar qayd etilmoqda.

Turli adabiy manbalarda "moliyaviy savodxonlik" tushunchasi odatda ikki xil talqin qilinadi. Bir tomondan, ular moliyaviy bozorlar, ularning faoliyat ko'rsatishi va tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, professional ishtirokchilar va ular taklif etayotgan moliyaviy vositalar, mahsulotlar va xizmatlar, ulardan foydalanish qobiliyati haqidagi bilimlar to'plamini anglatadi. Boshqa tomondan, ular bu kontseptsiyani yanada kengroq ko'rib chiqadilar, bu esa moliyaviy savodxonlik bozor iqtisodiyotini to'g'ri baholash va oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradigan moliya sohasidagi bilim va ko'nikmalarning yetarli darajasi ekanligini anglatadi.

Moliyaviy savodxonlik, moliyaviy madaniyat shaxs ma'naviyatining muhim jihatidir. Chunki, moliyaga oid bilimlar xo'jalikni tashkil etish va samarali yuritishni, foyda olishga yo'naltirilgan bilimlarni o'rgatish bilan bir qatorda, kishilarni mehnatsevarlikka, tejamkorlikka, mulkka nisbatan ma'suliyat va javobgarlik hissini, o'zi va jamiyat uchun foydali bo'lgan innovatsion g'oyalarni hayotga tadbiiq etishni, ish va vazifaga nisbatan ma'suliyat bilan yondashishni, kishilar bilan moliyaviy – ijtimoiy munosabatga kirishishni, insof, diyonat, homiylik, himoya, ota – onaning farzand oldidagi, farzandning ota – ona oldidagi burchi va vazifalari, tadbirkorlik, savdo va boshqa moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirish qonun – qoidalari va meyorlarini, moliyaviy – ijtimoiy hamkorlikda o'zaro sherikchilik prinsplariga amal qilish kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda hududlar iqtisodiy potentsiali oshishi uchun aholi bir qator asosiy tushunchalarni o'zlashtirishi maqsadga muvofiq: Moliyaviy tafakkur – insonning moliyaviy jihatdan voqea-hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish; kishidagi moliyaviy ong, moliyaviy qarashlar, moliyaviy faoliyat, moliyaviy bilim va tushunchalar, moliyaviy xatti-harakat majmuidan iborat bo'lib, uning asosida moliyaviy madaniyat paydo bo'ladi. Moliyaviy ta'lim moliyaviy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning natijasida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni, moliyaviy qarorlar qabul qilishda foydani maqsad qilish bilan bir qatorda tejamkorlik, halollik, insof, diyonat, mehnatdan zavqlanish, yangiliklarga intilish, himoya va homiylik tamoillariga amal qilish kabi fazilatlarni yuzaga chiqaradi. Pinhona moliya – bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-moliyaviy



munosabatlardir. Bu munosabatlar o'z ichiga moliyaviy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi.

**Xulosa.** Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish fuqarolarning turli yosh va daromad toifalari uchun qulayliklar yaratadi, ijtimoiy-iqtisodiy harakatchanlik va moliya bozorida chetlanishning oldini olishga yordam beradi. Iqtisodiy savodli odamlar o'zlarining xatti-harakatlarida ko'proq tanlovga ega bo'lib, kelajakdagi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilash imkoniyatini beradi. Moliyaviy savodxonlikni oshirishning uy xo'jaliklari, korxonalar, davlat va umuman iqtisodiyot uchun ijobiy oqibatlari to'g'risidagi mavjud fikrlarni jamlab, ularni aks ettirishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqi. -T: 2017 y.

2. F.T.Egamberdiev, M.O.Esonova, J.X.Xamraqulov, M.F. Egamberdiev. Moliyaviy tafakkur «Adabiyot uchqunlari». -T: 2018 y.

3. Старченко Е.Н., Вержицкий Д.Г., Копышева Т.В. Повышение финансовой грамотности населения как фактор решения социальных проблем// Фундаментальные исследования. – 2015. – № 6-2. – С. 401-405;

URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=38579> (дата обращения: 31.05.2024).

4. Белехова Г.В. Оценка финансовой грамотности населения и пути ее повышения // Проблемы развития территории. 2012. Вып. 4 (60) . С. 96-109. 2. 5. Россияне больше не верят банкам [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.utro.ru/articles/2015/05/18/1243948.shtml>.

5. Шибяев С.Р., Шадрин Ю.А. Зарубежный опыт повышения финансовой грамотности населения // Финансы и кредит. 2015. №24 (648). С. 27-33.

6. Белехова Г.В. К вопросу о финансовой грамотности населения // Проблемы развития территории. 2014. № 1 (69). С. 53-64.

7. Концепция национальной программы повышения уровня финансовой грамотности населения РФ. URL: <http://www.misbfm.ru/node/11143> (дата обращения: 17.03.2017).

8. Критерии финансовой грамотности населения и пути её повышения. Отчёт по результатам исследования Национального агентства финансовых исследований. URL: <http://www.docme.ru/download/29187#text> (дата обращения: 18.04.2017).

**Muxammedov Shamsiddin Faxritdinovich**  
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

## **INVESTITSIYA SIYOSATI VA MODERNIZATSIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiya siyosati va modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish, hamda investitsiya loyihalarni boshqarish bo'yicha chorara tadbirlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari respublikamizda investitsiya siyosati bo'yicha olib borilayotgan amaliy faoliyat samaradorligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** modernizatsiya, investitsiya, moliyalashtirish, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, loyiha, litsenziya, potensial, tashqi bozor, eksport, import.*

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ И МЕХАНИЗМОВ МОДЕРНИЗАЦИИ**

***Аннотация.** В данной статье разработаны меры по совершенствованию инвестиционной политики и механизмов модернизации, а также по управлению инвестиционными проектами. Кроме того, речь идёт об эффективности практической деятельности, проводимой в нашей республике по инвестиционной политике.*

***Ключевые слова:** модернизация, инвестиции, финансирование, экономика, производство, проект, лицензия, потенциал, зарубежный рынок, экспорт, импорт.*

## **IMPROVING INVESTMENT POLICIES AND MODERNIZATION MECHANISMS**

***Abstract.** This article develops measures to improve investment policy and modernization mechanisms, as well as to manage investment projects. In addition, we will talk about the effectiveness of practical activities carried out on investment policy in our republic.*

***Key words:** modernization, investment, financing, economy, Production, Project, license, potential, foreign market, export, import.*

**Kirish.** Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish talab qilinadi

O'zbekiston davlat mustaqilliga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotnirivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda va tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada jadallashtirishda milliy va xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida "investitsiyalar -investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar", deb keltirilgan. Davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyasining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanadaerkinlashuviga sabab bo'lmoqda. Investision faoliyatda erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investisiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, xorij kapitali, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb etish investisiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan xorijiy investisiyalar mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Respublika

iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabardor qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PQ-4300 sonli "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

**Asosiy qism.** Jahon iqtisodiyotida investitsiyalarga talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik tendensiyasi hukm surmoqda. Bugungi kunda investitsiyalar oqimi taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga faol yo'naltirilayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi keskin oshib bormoqda. O'z navbatida, investitsiyalar samaradorligini oshirish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjudligi investitsiya loyihalarini boshqarishni takomillashtirish zaruratini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Ayni paytda, jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlariga joylashtirish mexanizmlarini maqbullashtirish, investitsiya loyihalarini umummilliy va mintaqaviy darajada venchurli moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish vositalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **"Investitsiya loyihasi" tushunchasi 2 xil ma'noda talqin etiladi:**

- muayyan maqsadlarga erishish (muayyan natijalarni olish)ni ta'minlovchi qandaydir harakatlar kompleksini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, chora-tadbir sifatida;

- qandaydir harakat, faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy, texnik, hisob-moliyaviy hujjatlar tizimi sifatida.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilg'i energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarni qo'llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratildi.

Investitsiya siyosatni olib borishda quyidagi tamoyillarga asoslanildi:

❖ belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlar va faoliyat sohaslarini tanlab qo'llab-quvvatlash;

❖ ijtimoiy ahamiyatli tarmoqlarni (sog'liqni saqlash ta'lim, madaniyat va h.k.) aholi turmush darajasini yaxshilash, umrini uzaytirish, ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishning oldini olish, iste'mol talabining faollashuvini ta'minlash maqsadida etarli darajada qo'llab-quvvatlash;

❖ chet el investitsiyalarini o'zaro manfaatdorlik asosida ustuvor sohalarga jalb qilish;

❖ potensial investitsiya resurslarini savdo sohasi va pul bozorida sanoat sohasiga qayta taqsimlash;

❖ ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, xorijdan yangi texnikalar uchun litsenziyalar sotib olish, katta laboratoriyalarni saqlab turishga quvvati etadigan yirik korporatsiyalar tuzish orqali ishlab chiqarish kapitalini jamlash hisobiga intellektual kapital va ilmiy-texnik potensialni oshirish;

❖ qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va ularni tashqi bozorda raqobatbardosh bo'ladigan darajaga olib chiqishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

❖ aholining oziq-ovqat va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini jadal rivojlantirishni 10 investitsiyalar bilan ta'minlash;

❖ investitsiya jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini tartibga solib turuvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish.

**“Investitsiyalar” tushunchasi mazmunini tavsiflovchi zaruriy belgilar**

Investitsiyalar	Foyda yoki ijtimoiy samaraga erishishga qaratilgan bo'lishligi
	Barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellectual boyliklarning safarbar etilishi mumkinligi
	Kutilayotgan natijalarga erishishning risklilik darajasini oldindan baholash va aniqlashning zarurligi
	Uzoq muddat davomida amalga oshirilishga mo'ljallanganligi
	Kapital qiymatini saqlab qolish yoki o'stirib borish imkonini berishligi
	Ko'zda tutilmagan yo'qotishlar uchun zahira mablag'larini tashkil qilish
	Qonun bilan ta'qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatining barcha ob'ektlariga yo'naltirilishi mumkinligi
	Davlat, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi

Iqtisodiyot transformatsiyasi va xalqaro integratsiyalashuvi, iqtisodiyotda tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar tobora kuchayib borgan sari yangi xo'jalik sub'ektlarining paydo bo'lishi, ularning va mavjudlarining kuchli raqobat va turli omillari ta'siri yuqori bo'lgan sharoitda yashab qolishi va rivojlanishi tobora murakkablashib boraveradi. Bu holat investitsiya loyihalarini boshqarishga nisbatan bo'lgan talab va mas'uliyatni ham yanada oshirishga olib keladi, o'z navbatida, yangidan-yangi usullarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

**Ta'sir etishi kuchaygan omillar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:**

1. Buyurtmachilarning talablar va ularning mas'uliyati oshishi.
2. Loyihalarning yakuniy mahsulotlarining xususiy murakkabligi.
3. Loyihalarning tashqi atrof bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri (iqtisodiy, siyosiy, ekologik, ijtimoiy, madaniy muhit).
4. Risk va noaniqlik darajasi.
5. Tashkiliy qayta qurish.
6. Texnologiyalar almashuvi chastotasi.
7. Rejalashtirish va narxni shakllantirishdagi xatoliklar va boshqalar.

**Xulosa.** Yuqoridagi omillarning ta'siri loyihalarning bajarilish muddati buzilishiga, ortiqcha mablag'lar sarfiga, talablarning bajarilmasligiga, oxir-oqibat, foydaning kamayishi va zararlarining ko'payishiga olib keladi. Bunga misol qilib, Sidneydagi opera binosi qurilishini keltirish mumkin. Bunda mazkur bino qurilishi xarajatlari boshlang'ich stema qiymatiga nisbatan 16 martaga oshib ketishi yuz bergan. Amaliyotda minglab loyihalarning rejalashtirilgan xarajatlar va muddatlari bo'yicha buzilishi natijalari va sabablari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. Yangi tahrir. 2014 yil 9 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2000 yil 25 may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 noyabrdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5587-sonli Farmoni.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga



bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

5. Нишетой А.С. Инвестиции: Учебник. - 4-е изд., перераб и доп. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко», 2006. - 376 с.

6. Қобилов Р.Ш. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. –357 б.

<b>PSIXOLOGIYA</b>	
<b>3</b>	<b>Ganjiyev Feruz Furqatovich</b> <b>O'smirlarda agressivlik va uning o'ziga xos psixofiziologik ko'rinishlari</b>
<b>8</b>	<b>Iskandarova Fotima Ibrohim qizi, Avezov Olmos Ravshanovich</b> <b>Marginal holat xususiyatlarining pedagogik va psixologik jihatlari</b>
<b>11</b>	<b>Yaxyoyeva Gulhayo Murot qizi</b> <b>O'quvchilarda kasbiy mas'uliyat hissini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</b>
<b>16</b>	<b>Ostanov Shuhrat Sharifovich</b> <b>Zamonaviy jamiyatda o'smirlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</b>
<b>21</b>	<b>Jalilova Munisa Abdurashid qizi</b> <b>Distinctive features of the development of reflex in psychologist specialists</b>
<b>26</b>	<b>Avezov Olmos Ravshanovich, Dilova Gulchiroy Bahodirovna</b> <b>Ijtimoiy psixologiyada oila va uning tiplari muammosi</b>
<b>30</b>	<b>Izomova Mehriniso Abdullayevna</b> <b>Sharq mutaffakkirlari qarashlarida shaxslararo munosabatlar persepsiyasining psixologik jihatlari</b>
<b>34</b>	<b>Xoliqova Dildora Nayimovna</b> <b>Ta'lim muhiti yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashga tayyorlash psixologik omili sifatida</b>
<b>40</b>	<b>Tasheva Aziza Salomovna</b> <b>Talabalar tafakkuri shakllanishida ongsizlikning roli va o'rni muammosi</b>
<b>45</b>	<b>Qosimova Guli Odilovna</b> <b>Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari</b>
<b>49</b>	<b>Rustamov Shavkat Shuxrat o'g'li, Niyozova Zarina Otabek qizi</b> <b>Talabalarda manipulyatsion ta'sir va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari</b>
<b>IQTISODIYOT</b>	
<b>54</b>	<b>Otaboyev No'monjon G'anijon o'g'li</b> <b>Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muammolari va istiqbollari</b>
<b>57</b>	<b>Muxammedov Shamsiddin Faxritdinovich</b> <b>Investitsiya siyosati va modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish</b>